

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: _____

ISROILOVA DILDORAXON G'AFFOROVNA

**MILLIY PENSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH
YO'NALISHLARI**

Mutaxassislik: 5A231301 – “Pensiya ishi”

Magistr akademik darajasini olish ushun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

G.A.Kasimova

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

	betlar
KIRISH.....	3
1-BOB. JAHONDAGI PENSIYA TA'MINOTI TIZIMLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Jahondagi pensiya ta'minoti tizimlarining shakllanish va rivojlanish tarixi.	7
1.2. Jahondagi pensiya tizimlari modellarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.	12
1-bob bo'yicha xulosa.	19
2-BOB. XORIJIY DAVLATLARDA FUQAROLARNING PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....	21
2.1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotini boshqarish va tashkil qilish amaliyoti (AQSh misolida).	21
2.2. Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimining xususiyatlari.	30
2.3. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini boshqarish va tashkil qilish amaliyoti.	38
2-bob bo'yicha xulosa.	48
3-BOB. JAHONDAGI PENSIYA TA'MINOTI TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IJOBIY TAJRIBALARI.....	49
3.1. Jahondagi pensiya ta'minoti tizimlarining rivojlanish tendensiyalari.	49
3.2. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollari.	55
3-bob bo'yicha xulosa.	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakat strategiyasining asosini, avvalambor, inson manfaatlarini ta‘minlash bilan bog‘liq vazifalar tashkil qiladi. Harakatlar strategiyasida “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish ko‘zda tutilgan bo‘lib, “fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish”¹ chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutilgan. Bu maqsadda Harakatlar strategiyasini “2018-yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturida “Aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha “iste‘mol savatchasi”ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish nazarda tutilgan. Hududlar kesimida “iste‘mol savatchasi”ni hisobga olgan holda ish haqi, pensiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlar miqdorini belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish mo‘ljallanmoqda”.² “Davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik rehabilitatsiya vositalari turlarini ko‘paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, og‘ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo‘qotgan,

¹ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 4.2-band. O‘R QHT. 6(766)–son, 70-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlar milliy bazasi: 06/18/5308/0610-son. 23.01.2018.

nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish”³ choralari ham belgilangan.

Bugungi kunga kelib pensiya ta‘minoti har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Bu mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining o‘ziga xos shakllanish tarixi, yaqin va uzoq tarixdagi taraqqiyot bosqichlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bugungi globallashuv sharoitida rivojlanish tendensiyalari mavjud. Shuningdek, turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xosliklar pensiyaga chiqish yoshi va pensiya stajlaridagi farlarning mavjudligi, pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to‘lash tartiblarining turlichaligi, pensiyaga sarflanadigan mablag‘larni moliyalashtirish manbalari tarkibi va tuzilishining har xilligi, pensiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining amal qilishi, pensiya fondlarining moliya bozorlaridagi ishtiroki va pensiya jamg‘armalarining investitsion resurs sifatida ishlatilishida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda pensiya ta‘minoti tizimini samarali tashkil etish, uning moliyaviy manbalarini mustahkamlash masalalarida xorijiy tajribani chuqur o‘rganish, xorijiy davlatlardagi pensiya ta‘minotidagi ijobiy jihatlarni milliy pensiya tizimimizga tatbiq etish, shu asosda mamlakatimiz pensiya tizimining iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash masalalari bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan jahon mamlakatlarida pensiya tizimlarining amal qilishi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bevosita tadqiqot predmeti sifatida qabul qilindi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimida pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tadqiqot predmeti sifatida tanlandi.

Tadqiqot obyekti. Izlanishimizning diqqat markazida jahonda mavjud pensiya tizimlari bo‘ldi, shu sababli tadqiqot obyekti sifatida avvalo Amerika

³ Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. IV bo‘lim, 4.1-band.

Qo'shma Shtatlari hamda Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimi tanlab olindi. Shuningdek, bitiruvoldi malakaviy amaliyotni o'tash bazasi Toshkent shahar Yashnobod tuman byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ekanligini inobatga olib, mamlakatimizda shakllangan pensiya ta'minoti shu obyekt bo'yicha o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasimizning asosiy maqsadi – jahon pensiya tizimlari modellarini o'rganish asosida ushbu modellarning afzallik va kamchilik jihatlarini aniqlash, pensiya ta'minotidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, ulardan mamlakatimiz pensiya tizimida yaqin va o'rta istiqbolda foydalanish imkoniyatlarini kompleks tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- jahon pensiya tizimlarining shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish;
- jahon pensiya tizimlari modellarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasida pensiya ta'minotini tashkil qilish amaliyotini tadqiq qilish;
- O'zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta'minotini tashkil qilish amaliyotini byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmasi amaliy faoliyati misolida tahlil qilish;
- jahon pensiya tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;
- jahon pensiya tizimlari ijobiy tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari tadqiq qilish;
- globallashtirish sharoitida pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini tadqiq qilish asosida tegishli xulosalarni shakllantirish, takliflar ishlab chiqish va ularni nazariy jihatdan asoslab berish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishning nazariy ahamiyatini unda jahon pensiya tizimlari modellarining shakllanishi va rivojlanish tarixi yoritib berilganligi, ushbu modellarning afzallik va kamchilik jihatlari o'rganilganligi, milliy pensiya tizimlarining xususiyatlari ochib berilganligi, shu

asosda tanlangan mavzu bo'yicha yaxlit ilmiy ish shakllantirilganligi belgilab beradi. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda milliy pensiya ta'minotining amaliy faoliyatini xorijiy tajribani o'rganish asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv-malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish qismi, 7 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan bo'lib, 71 betdan iborat, ishda tahliliy materiallar 12 ta jadval va 6 ta chizmada aks ettirilgan.

Ishning 1-bobida jahon pensiya tizimlarining shakllanish va rivojlanish tarixi, jahon pensiya tizimlari tizimlari modellarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari, milliy pensiya tizimlarining xususiyatlari nazariy jihatdan o'rganilgan.

2-bobda Amerika Qo'shma Shtatlarida pensiya ta'minotini tashkil qilish amaliyoti, Rossiya Federatsiyasida fuqarolar pensiya ta'minotining xususiyatlari o'rganilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolar pensiya ta'minotini tashkil qilish amaliyoti Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar Yashnobod tumani ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

3-bobda jahon pensiya tizimlarining rivojlanish tendensiyalari hamda xorijiy davlatlar pensiya tizimlari ijobiy tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Xulosa va takliflar qismida magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan shakllangan xulosalar bayon qilingan, nazariy jihatdan asoslab berilgan va amaliy takliflar shakllantirilgan. Unda O'zbekiston Respublikasida muhokama qilinayotgan "Pensiya ta'minotini isloh qilish Konsepsiyasi" loyihasi bo'yicha shakllantirilgan xulosa va takliflar o'z aksini topgan.

1-BOB. JAHONDAGI PENSIYA TA'MINOTI TIZIMLARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Jahondagi pensiya ta'minoti tizimlarining shakllanish va rivojlanish tarixi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-Assambleyasida so'zlagan nutqida: “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat”⁴ ekanligini alohida ta'kidladilar. Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Ushbu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

Jahon mamlakatlari pensiya ta'minoti tizimlarida yuz berayotgan o'zgarishlarni, xususan, rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, undagi ilg'or tajribalarni o'rganish mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va boshqalar qo'llaniladi. Bunda “jamg'ariladigan” va “taqsimlovchi” modellar ham bo'lib, asosan, “kombinatsiyalashgan” model amal qiladi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 22.09.2017 yil

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozir aholisining 20 foizidan ko'pi 65 yoshdagilarni tashkil qiluvchi mamlakatlar safida faqat Germaniya, Italiya va Yaponiya kabi davlatlar bor.

Buyuk Britaniya pensiya tizimi dunyodagi eng qadimiysi bo'lib, ommaviy va universal pensiya ta'minoti 1908-yilda joriy qilingan. Mazkur tizim tashkil etish, tartibga solish va imkoniyatlar tanlovi bo'yicha birmuncha murakkab hisoblanadi. Buyuk Britaniyalik pensionerlar oylik maoshi va ish stajidan kelib chiqib, davlatdan bazaviy pensiyani ham, milliy sug'urta tizimidan mehnat pensiyasini ham olishi mumkin. Davlatning bazaviy pensiyasini 65 yoshdan oshgan erkaklar va 60 yoshdan oshgan ayollar olishadi, uning miqdori ish stajiga bog'liq bo'ladi. Pensiyaning miqdori cheklangan va inflyatsiyadan kelib chiqib, davlat tomonidan indeksatsiya qilinadi. Ishchi-xodimning o'rtacha oylik ish haqining 20 foizi miqdorida davlat tomonidan kafolatlanadi. Mehnat pensiyasi ham ishchi-xodimning badallari hisobiga shakllantiriladi, biroq, bunda ish beruvchi bilan teng ikkiga bo'linadi. Mehnat pensiyasi to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar miqdoriga bog'liq bo'lib, daromadning 20 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada xususiy pensiyalarni jamg'arishning turli-tuman usullari – korxonada korporativ dasturlardan tortib, to nodavlat pensiya fondlariga ixtiyoriy tarzda pensiya jamg'arishning rivojlangan tizimi ham mavjud.

Ijtimoiy ta'minot tizimi birinchi marta 1889-yilda Germaniyada mamlakat kantsleri Otto Fon Bismark tomonidan yaratilgan. Ushbu tizim to'liqligicha sug'urtaga asoslangan bo'lib, to'lovlar miqdori ish haqiga bog'liq bo'lgan. Germaniyaning pensiya tizimi "avlodlar birdamligi" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni hozirda ishlovchilar pensionerlarning pensiyalarini to'lash uchun davlat pensiya fondiga ijtimoiy sug'urta badallarini to'laydilar va bu pensionerlarga pensiya to'lanadi. Bugungi kunda ishlayotgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan to'lovlar miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, keyinchalik ular tomonidan to'langan to'lovlarga mutanosib ravishda pensiya miqdori shuncha yuqori bo'ladi. Germaniya fuqarolari tomonidan Pensiya fondiga to'lanadigan har oylik to'lovning o'rtacha miqdori ular ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Bunda uning teng yarmini ish beruvchi

to'laydi. Fuqaro harbiy xizmatni o'tayotgan vaqtda yoki ayollarning dekret ta'tili davomida to'lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya hisob-kitoblari individual koeffitsientlar asosida (butun mehnat faoliyatida) amalga oshiriladi. U pensiyaga chiqish yoshiga (Germaniyada pensiyaga chiqish yoshi 67 yoshni tashkil qiladi), mehnat stajiga, ish haqi miqdoriga va pensianing turiga bog'liq bo'ladi. Germaniyada ishlovchilarning ko'pchiligi nodavlat pensiya fondlarida ishtirok etishadi va xususiy pensiya rejalariga ega bo'ladilar.

Ilk pensiya ta'minoti Frantsiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. 1790-yildagi "Buyuk frantsuz inqilobi" davrida "Davlat xizmatchilari uchun fuqarolik pensiyasi haqida"gi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va ellik yoshga to'lganlar uchun mo'ljallangan edi. Frantsiya pensiya tizimi "taqsimlovchi" modelga asoslangan bo'lib, bunda pensionerlarning pensiyalari iqtisodiy faol aholi to'lovlari hisobidan shakllanuvchi daromadlar hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya ta'minotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari va assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Pensiya badallari ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida taqsimlanadi. Erkin kasb egalari, jumladan, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining, dehqonlarning Pensiya fondiga to'laydigan har oylik to'lovlari miqdori ish haqining 16,35 foizni tashkil qiladi. Frantsiyada pensiyalar o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi va bunda so'nggi 11 yillik mehnat staji hisobga olinadi. Biroq, Frantsiyada minimal va maksimal davlat pensiyasi amal qiladi. Bugungi kunda minimal davlat pensiyasi taxminan yiliga 6 ming evroni tashkil qiladi, maksimal davlat pensiyasi miqdori esa bundan 2 barobar ko'p. Pensiya chiqishning minimal yoshi 60 yilni tashkil qiladi. Agar fuqaro 41 yil ishlagan bo'lsa, u to'liq miqdorda pensiya oladi. Agar mehnat staji kam bo'lsa, pensiya miqdori 1,25 foizga kamayadi. Agarda fuqaro 65 yoshida munosib tarzda nafaqaga chiqadigan bo'lsa, u holda u qachon mehnat faoliyatini boshlaganidan qat'iy nazar o'z pensiyasini to'liq oladi. Frantsiya Qariyalar ishlari bo'yicha vazir Mishel Delone mamlakatda 60 yoshdan oshganlar umumiy aholi ulushida 23,4 foizni tashkil etayotganini ta'kidlar ekan, keksalarni ishlab chiqarishga faol jalb qilish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Ular istiqbolda

davlat xizmatlari uchun, balki, ko‘plab kompaniyalarga ham bag‘oyat foydali shaxslarga aylanishlari mumkin.

Shvetsiyada pensiyalar uch qismdan iborat: shartli-jamg‘arma; jamg‘arma va kafolatli. Birinchisi, ishchilar ish haqining 16 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan shakllanadi va bu joriy iqtisodiy vaziyat va demografik holatdan kelib chiqib indeksatsiyalanadi. Jamg‘arma qismi ham ishchilarning ish haqiga bog‘liq bo‘ladi, biroq, bu mablag‘lar ishlovchining hisobraqamidagi real mablag‘lar bo‘lib, ushbu mablag‘larni nodavlat pensiya fondlari orqali investitsiyalashi mumkin.

Finlyandiya pensiya tizimida asosiy o‘rinni taqsimlovchi pensiya tizimi egallaydi. Taqsimlovchi pensiya tizimi bazaviy va sug‘urtaviy qismga bo‘linadi. Bazaviy qism milliy (davlat) pensiyaning minimal miqdorini kafolatlaydi. Mehnat pensiyasining sug‘urtaviy qismi markazlashmagan bo‘lib, sug‘urta kompaniyasi yoki pensiya fondining tanlab olingan sxemasi bo‘yicha badallar hisobiga shakllanadi. Sxemalar tarmoq, alohida korxona, ijtimoiy guruhlar tarzida bo‘lishi mumkin. Sxemalar qisman fondlashtirilgan bo‘ladi.

Norvegiyada pensiyalar har bir fuqaroga davlat tomonidan to‘lanadi va uning miqdori mehnat staji va ish haqi miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, mamlakatda neft hisobidan orttirilgan yuqori daromadlar joylashtirilgan Pensiya fondi mavjud. Davlat ushbu fond mablag‘larini butun dunyo bo‘yicha ko‘chmas mulk va fond bozoriga investitsiya qiladi. Norvegiyada (Skandinaviya mamlakatlarida ham) pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham – 65-67 yoshni tashkil qiladi, biroq, Hukumat hozirgi kunda pensiya yoshini 70 ga etkazish choralarini ko‘rmoqda.

AQShda davlat pensiya tizimi hamda xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Shunga muvofiq ravishda AQSh fuqarolari o‘zini bir emas, uch turdagi pensiya bilan ta‘minlaydi: davlat; xususiy jamoa (ish joyi bo‘yicha) va xususiy individual (shaxsiy pensiya hisob-raqami ochish yo‘li bilan). Taqsimlovchi (davlat pensiyasi) tizimda pensionerlar hozir ishlayotgan fuqarolar tomonidan Pensiya fondiga badallarni to‘lashlari hisobiga pensiya oladilar. AQShda eng yirik davlat pensiya tizimi – umumiy Federal dastur hisoblanib, ushbu dastur iqtisodiyotning xususiy

sektorida band bo'lgan barcha aholini qamrab oladi va taqsimlovchi tamoyilga asoslanadi. Dastur 1935-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi Qonunga asosan amal qiladi va minimal pensiyani ta'minlaydi. Jamg'ariluvchi tizimga esa davlat pensiya dasturlari bilan birga xususiy pensiya dasturlari ham tegishlidir. Jamg'ariluvchi tizimdagi davlat pensiya dasturlari mahalliy organlarda va Hukumat tarkibida ishlovchi fuqarolarga mo'ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar ish joyida tashkil etiladigan qo'shimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etishlari mumkin. Dastur belgilangan to'lovlar asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi. Har bir AQSh fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamini ochishi mumkin. Shaxsiy pensiya hisobraqamiga to'lovlarning yillik miqdorining yuqori chegarasi cheklangan bo'lib, 2000 AQSh dollarini tashkil qiladi. Ushbu hisobraqamdagi mablag'larni 59,5 yoshgacha echib olish mumkin emas, 79,5 yoshga to'lganda esa hisobraqam majburiy tartibda yopiladi. Hisobraqamdagi ushbu mablag'lar soliqqa tortilmaydi, ammo, ushbu mablag'larni hisobraqamdan echib olishda hamda hisobraqamni yopishda jamg'arilgan mablag'lardan daromad solig'i olinadi. AQShda 1938-yilgacha tug'ilgan shaxslar uchun pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Aholining umrguzaronligi oshib borishi bilan "Ijtimoiy ta'minot to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSh pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.

Chili pensiya tizimi dunyodagi innovatsion pensiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Pensiya tizimining Chili modelida pensiya jamg'armalari shakllanishining javobgarligi ishlovchi fuqarolar zimmasiga yuklatilgan. Har bir fuqaroning o'zining pensiya hisobraqami mavjud bo'lib, ushbu hisob-raqam ishlovchilar ish haqining oylik 10 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan to'ldirib boriladi. Keyinchalik ushbu mablag'lar fuqarolar xohishiga ko'ra xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan kapitalizatsiya qilinadi. Chilida pensiya yoshi erkaklar uchun 65 yoshni, ayollar uchun 60 yoshni tashkil qiladi.

Xitoyda pensiyalarni dastlab chinovniklar va davlat kompaniyalari ishchilari olishgan. Keyinchalik bu tizimga bozor islohotlari natijasida xususiy sektorda ishlovchi shahar aholisi ham jalb qilingan. 2007-yilda 30 foiz aholi pensiyaga ega bo'lgan bo'lsa, qolganlarini an'anaviy tarzda farzandlari boqishgan. 2009-yilda Xitoy hukumati qishloq aholisi uchun ham pensiyalarni joriy qildi. 2012-yilda pensiya tizimi Xitoy aholisining 55 foizini qamrab oldi. Xitoyda 2013-yilda 60 yoshdan oshgan aholi soni 202 million kishi bo'ldi va aholi sonining 15 foizini tashkil qilmoqda. Bu qatlam bilan ishlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish, jamiyat hayotidan ajralib qolmasligini ta'minlash yuzasidan Xitoy keng ko'lamli chora-tadbirlarni allaqachon boshlagan.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda pensiyaga 65 yoshdan chiqiladi. Evropa va AQShda yaqin yillar ichida bu chegarani 70 yosh qilib belgilash nazarda tutilmoqda. 2005-yildayoq Evrokomissiya Evropa Ittifoqi mamlakatlari pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borishi zarurligi bo'yicha tegishli tavsiya bergan. 2060-yilga borib iqtisodiy nuqtai nazardan optimal variant 70 yosh atrofida bo'ladi.

Rossiyada pensiya yoshi 2015-yilda erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yoshni tashkil etar edi. Lekin, ushbu mamlakatda ham pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish jarayoni boshlandi va 2016-yilda erkaklar 61 yoshda, ayollar 56 yoshdan pensiya chiqishi va shu zaylda davom etib, 2020 yilga borib erkaklarning 65 yoshda, ayollarning 60 yoshda pensiyaga chiqishi qonunan belgilab qo'yildi.

1.2. Jahondagi pensiya tizimlari modellarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari

“Pensiya” so‘zining o‘zi lotincha “pension” so‘zidan olingan bo‘lib, mehnat qobiliyatini, va demak, ish haqi ko‘rinishidagi daromad manbaini yo‘qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo‘qotganda moddiy ta‘minlash uchun muntazam to‘lanishi mo‘ljallangan pullik to‘lov ma‘nosini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, pensiya tizimi deganda mamlakat fuqarolarini ma‘lum yoshga

etganda, nogironlikda, boquvchisini yo'qotganda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig'indisi tushuniladi.

Davlat tomonidan tashkil qilingan, xususiy sektorda band bo'lgan aholiga yoshga doir pensiya to'lash tizimi birinchi bo'lib Germaniyada 1889-yilda joriy qilingan. Nemischa yondashuvning o'ziga xos xususiyati shundan iborat bo'ldiki, fuqarolarning ijtimoiy sug'urtasi majburiy ravishda ijtimoiy sug'urta badalini to'lashga asoslangan edi.

Daniya (1891-yil) va Yangi Zelandiya (1898-yil) nochor aholiga qaratilgan maqsadli yordamga asoslangan pensiya tizimi joriy qilingan. Bu tizimda barcha to'lovlar umumiy soliqlar evaziga moliyalashtirilgan bo'lib, nochorlik darajasini aniqlashni nazarda tutar edi va barchaga barobar daromadni kafolatlar edi. Keyingi yillarda ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'zlarining pensiya sug'urtasi tizimlarini Germaniya modeliga asoslanib shakllantirdilar, Anglo-sakson mamlakatlar (AQShdan tashqari) va Shimoliy Yevropa mamlakatlari esa Daniya va Yangi Zelandiyaning yo'lidan bordilar. Bu tizimlar turli vazifalarni bajarishga qaratilgan edi: Germaniya modeli ishlovchi xodimning pensiyaga chiqqanidan keyin ham ijtimoiy maqomini saqlab qolishni nazarda tutsa, keyinchalik Angliyada joriy qilingan Daniya modeli kambag'allikning oldini olish vazifasini bajarar edi.

Shimoliy Amerikada davlat pensiya ta'minoti tizimi nisbatan kechroq shakllandi. Kanada 1927-yilga kelib sug'urta badallari to'lashni nazarda tutmaydigan, muhtojlik darajasini aniqlashga qaratilgan tizimni joriy qilgan bo'lsa, AQShning bir qator shtatlarida muhtojlik mezoniga ko'ra pensiya tizimlarini shakllantirish ishlari 1920-yillarga to'g'ri keldi. 1934-yilda bunday tizimlar 28 ta shtatda amal qilar edi. 1935-yilga kelibgina AQShda pensiya sug'urtasining federal darajadagi tizimi yaratildi.⁵

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo'lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko'ra, pensiya tizimiga

⁵ Федотов А. И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. Труды ИСА РАН 2006. 309-стр.

tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo'yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo'lib, sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minotga ega bo'lishni kafolatlaydi.

Pensiya ta'minotining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg'unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug'urtaviy tizimlar bilan to'ldirildi, sug'urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiati nafaqat umumqabul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, birinchidan, pensiya auqarolarni kambag'allikdan himoyalab, ular daromadlarining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma'lum belgilangan sug'urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o'rnini bosadi, ya'ni yo'qotilgan daromadni yoki uning ko'p qismini kompensatsiyalaydi⁶.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsional tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

O'zining ijtimoiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, pensiya sug'urtasi mehnatkashlar tomonidan yakka va jamoaviy tarzda o'z joriy daromadlarining bir qismini boshqarish va nazoratning sug'urtaviy va davlat mexanizmlari (qonuniy, tashkiliy va moliyaviy) yordamida zaxiralashdan iborat.

Kelgusidagi sug'urtaviy pensiyaning miqdori qator omillarga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim, bular:

- sug'urta stajining davomiyligi;
- sug'urtalanadigan ish haqining miqdori;
- sug'urta tarifining katta-kichikligi;
- kelgusidagi to'lovlar davrining davomiyligi.

⁶ Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. М.: Дашков и К*. 2009. 30-betdan tarjima.

Pensiya tizimlarini tavsiflovchi mezonlar tarkibi⁷

Tartibga solish sohasi	Pensiyalarni tayinlash va to'lash shartlari	Pensiya miqdorini hisoblash tartibi	Moliyaviy jihatdan ta'minlanishi	Pensiya tizimlarini shakllantirish uchun sharoitlar va uning qiymati	Boshqaruv organlari
Mezonlar turlari	- pensiya yoshi, sh.j. ayollar va erkaklar uchun. - sug'urta staji, sh.j. ayollar va erkaklar uchun. - ishlovchi pensionerlarga pensiyalarni to'lash tartibi - muddatidan oldin pensiyaga chiqish tartibi	- pensiya ta'minotining kafolatlangan me'yorlari (pensiyalarning eng kam miqdori, sh.j. sug'urtaviy va ijtimoiy pensiyalar bo'yicha) - o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbati - ish haqi miqdorini hozirgi kun darajasiga renlashtirish tartiblari - pensiyani hisoblash va sug'urta badallarini undirishda qabul qilinadigan ish haqining yuqori darajasi	- asosiy ijtimoiy subyektlarning (ish beruvchilar, ishlovchilar, davlat) pensiya tizimini moliyaviy jihatdan ta'minlash bo'yicha majburiyatlari - ijtimoiy pensiyalarga xarajatlar miqyosi - taqsimlanadigan, jamg'arib boriladigan va aralash pensiya tizimlarida moliyaviy ta'minot manbalarining tarkibi va tuzilishi - o'rta va uzoq istiqbolda pensiya tizimi xarajatlarning YaIMdagi ulushi	- mamlakatning iqtisodiy va demografik rivojlanish istiqbollariga bog'liq ravishda pensiya tizimlarini shakllantirish bosqichlari - pensiya sug'urtasi to'lovchilar bilan pensionerlar sonining nisbati - moliyaviy institutlarni yaratish bosqichlari - sug'urta rezervlarini shakllantirish darajasi	- boshqaruv organlarining tuzilishi - ijroiya organlarining tarkibi - nazorat qiluvchi organlarning tarkibi va vakolatlari

⁷ Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. М.: Дашков и К*. 2009. 32-betdan tarjima.

Shuning uchun pensiya sug'urtasining moliyaviy mexanizmini ishlab chiqishda shunday hisob-kitoblar tizimi qo'llaniladiki, ular sug'urtalangan va pensiyaga chiqayotgan fuqaro guruhlari oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni kelgusidagi to'lovlar davri mobaynida muntazam ravishda bajarish (pensiyalarni to'lab borish) uchun yetarli bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu vazifani bajarish ancha qiyin ekanligini e'tirof etish lozim, chunki u oldindan aniqlash qiyin bo'lgan qator omillarga bog'liq: sug'urta badallarini to'lab borish (30-50 yil) va pensiya olish (20-30 yil) davrlarining davomiyligi, bu davrda mehnat haqi va inflyatsiya darajasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi, pensionerlar va ishlovchilarning ham absolyut miqdori, ham bir-biriga nisbatlari sezilarli o'zgarishi mumkin.

Har bir mamlakatda u yoki bu pensiya modeli asosida milliy pensiya tizimlari shakllangan bo'ladi. Pensiya tizimining modeli uning moliyaviy jihatdan tashkil etilishini hamda mamlakat fuqarolarini qarilikda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Turli pensiya tizimlarini tahlil qilish ularning elementlari va xususiyatlarini muhim belgilariga ko'ra guruhlash imkonini beradi. Turli pensiya tizimlari ana shu belgilariga ko'ra bir-biridan farq qiladi (1-jadval).

Umuman olganda, mamlakatda aholining pensiya ta'minoti darajasi ustuvor ravishda ikkita omilga bog'liq: ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Har ikkala omil, shuningdek, pensiya ta'minoti darajasi mamlakatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Milliy pensiya tizimlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (1-rasm):

- aholini maksimal darajada pensiya tizimiga qamrab olish;
- pensiya yukini (og'irligini) pensiya tizimi subyektlari – ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash;
- barcha sug'urtalanuvchilarni qarilikda yoki nogironlikda o'z xohishi bilan yoki majburan pensiyaga chiqishi natijasida yo'qotayotgan daromadining katta qismini qoplash orqali mablag' bilan ta'minlash;




1-rasm. Milliy pensiya tizimlarining mazmuni va tashkil etishning asosiy tamoyillari⁸

- talab qilingan yetarli mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqaro toifalarini, shuningdek boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni kambag'allikdan ijtimoiy himoya qilish;

- inflyatsiya, ish haqlarining oshishi va hayot sifatining ko'tarilishi kabi omillarni hisobga olgan holda pensiyalarni indeksatsiya qilish.

Yuqoridagi tamoyillarning bajarilishi uchun pensiya tizimlari iqtisodiy maqbullikni, individual adolatni va ijtimoiy samarani ta'minlashi kerak (2-rasm).

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.



2-rasm. Milliy pensiya tizimlari bajarishi lozim bo'lgan majburiyatlar⁹

Iqtisodiy maqbullik va samaradorlik sug'urta yukini sug'urta badallarini (yoki yagona ijtimoiy to'lovni) to'lovchilar bilan pensiya oluvchilar o'rtasida oqilona va adolatli taqsimlashni nazarda tutadi.

Individual adolat pensiya sug'urtasi bilan sug'urtalangan shaxsning pensiya tizimini moliyalashtirishda ishtirok etish ko'lamlari bilan uning pensiya olishga bo'lgan huquqlarining ekvivalentligi yoki aniq bog'liq bo'lishi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy samaraga erishish uchun pensiya tizimi nafaqat undagi ishtirokchiga minimal kafolatlarni ta'minlab berishi (minimal pensiyalar), balki barcha pensionerlarga munosib yashash darajasini ta'minlashi zarur.

Ko'pchilik pensiya tizimlaridagi islohotlar aynan iqtisodiy samaradorlikka erishishga qaratilmoqda va bundan ko'p hollarda ijtimoiy samaraga putur etmoqda. Iqtisodiy samaradorlik sug'urta to'lovlarini to'lovchi faol aholi bilan pensiya oluvchi aholi o'rtasida shunday qayta taqsimlashni nazarda tutadiki, mablag'larning bunday qayta taqsimoti ishlovchi aholiga og'ir yuk bo'lib yotmasin, shu bilan birga, pensiya to'lash bilan bog'liq bo'lgan joriy va kelgusidagi majburiyatlarni bajarish uchun yetarli mablag'larni ta'minlay olsin.

⁹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Boshqacha aytganda, pensiyalar bo'yicha sug'urta tarifining miqdori yoki ijtimoiy soliq bo'yicha soliqqa tortish stavkasi pensiya tizimi moliyaviy majburiyatlarini qoplash uchun yetarli darajada belgilanishi, ammo iqtisodiy o'sishga va mehnat unumdorligining oshishiga halaqit beradigan hamda milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini pasaytiradigan darajada yuqori bo'lmasligi zarur.

Pensiya ta'minoti milliy g'oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o'n yilliklar mobaynida ko'p mamlakatlar o'zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan isloh qilish zarurati bilan to'qnash kelmoqdalar.

XXI asr boshlarida jahon mamlakatlarida avlodlar birdamligi va jamg'arish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va u birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli bo'lib, uni korxona yoki bir tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas. Birdamlik tizimining muhim jihati shundaki, u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar o'rtasida qashshoqlikni jiddiy kamaytiradi.

1-bob bo'yicha xulosa

Yuqorida amaliyotlari tahlil etilgan xorijiy davlatlar pensiya tizimida o'ziga xoslik va dunyoning ko'plab rivojlanayotgan va sust iqtisodiy rivojlanishda bo'lgan davlatlari uchun tajribalar orttirishga munosib yutuqlar ham mavjudligini ko'rish mumkin. Biroq, shu bilan birga, ularda ham hal etilishi jiddiy dolzarblikka aylanib borayotgan muammolar ham yo'q emasligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, AQSH va Yevropa davlatlarida pensiya yoshidagilarning aholi soniga nisbatan ulushining yil sayin ortib borayotganligi, qolaversa, ushbu pensiya yoshidagilar muayyan darajada yana mehnat faoliyatini olib borishga qobil bo'lsa-da, biroq, ularning (AQSH, Daniya, Finlyandiya, Fransiya va boshqa taraqqiy etgan davlatlarda) pensiya haqlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani

aholining katta qismi (80 foizi) jamg'arib boriladigan tizimlarda ishtirok etishiga va buning natijasida mehnat faoliyatini davom ettirishga hojat yo'qligini keltirib chiqarmoqda. Qiyosiy baholash uchun Osiyoda bu ko'rsatkich 40 foizni, Afrikaning qoloq davlatlarida esa atigi 5 foizni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, dunyo mamlakatlarining aksariyat ko'pchiligida aholini ishtimoiy himoya qilish vositasi sifatida pensiya tizimlari shakllangan. Ular tarixan bir-biriga yaqin davrlarda vujudga kelgan va ma'lum darajada aholining keksa va mehnatga layoqatsiz qatlamlarining ijtimoiy ta'minotiga xizmat qilgan. Bu mamlakatlarda asosan avlodlar birdamligiga asoslangan taqsimlanuvchi model, jamg'arib boriladigan model va korporativ modellarga qurilgan turli pensiya dasturlari mal qiladi. Bu dasturlarning moliyaviy manbalari ham modellarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, asosan, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga bog'liq. Ko'pchilik sivilizatsiyalashgan davlatlarda fuqarolarning pensiya ta'minoti masalasi davlat ahamiyatidagi siyosiy masala sifatida qaraladi. Shu bilan birga, xususiy pensiya tizimlarining rivojlanganlik darajasi mamlakatdagi moliyaviy sektorning rivojlanganligiga, moliyaviy bozorlardagi holatga bevosita bog'liqdir.

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi"ning alohida yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga bag'ishlangan. O'zbekistonda ijtimoiy sohaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan pensiya tizimini rivojlantirib borishga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada aholi, mehnatga layoqatsiz bo'lgan fuqarolar manfaatlari uchun xizmat qiladigan ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimining zaruriy huquqiy asoslari yaratilganligi hamda pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalarning yil sayin oshirib borilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Shunday bo'lsa-da, milliy pensiya tizimini takomillashtirishda izchil davom etish va uning yanada samarali bo'lishini ta'minlashda taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib borish maqsadga muvofiqdir.

2-BOB. XORIJIY DAVLATLARDA FUQAROLARNING PENSIYA TA'MINOTINI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH AMALIYOTI

2.1. Rivojlangan xorijiy davlatlarda pensiya ta'minotini boshqarish va tashkil qilish amaliyoti (AQSH misolida)

Amerika Qo'shma Shtatlari pensiya ta'minoti tizimi dunyodagi eng mukammal pensiya tizimi hisoblanadi. AQShda pensiyalarning miqdori Yevropa mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ham yuqoridir.

AQShda davlat pensiya fondlari bilan bir vaqtda, xususiy pensiya fondlari ham amal qiladi. Umumdavlat pensiya ta'minoti dasturi amerikalik ishchi-xizmatchilarning 96 foizini qamrab oladi va 58 mln. amerikaliklarning, shu jumladan, 47 mln. pensionerlarning daromad manbai bo'lib xizmat qiladi¹⁰.

Federal darajadagi pensiya sug'urtasi tizimi Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunga muvofiq 1935-yilda ta'sis etilgan bo'lib, ushbu qonunning loyihasi AQSh Kongressida ko'rib chiqish uchun Prezident F.Ruzvelt tomonidan taqdim etilgan¹¹.

1935-yilning avgust oyida kuchga kirgan Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun Amerika tarixida ilk bor amerikalik mehnatkashlarning pensiya ta'minotini kafolatlab berdi. Shundan buyon o'tgan 80 yildan ortiq davr mobaynida bu qonunga bir qancha tuzatishlar kiritilgan bo'lishiga qaramay, fuqarolarning pensiya ta'minotidagi asosiy tamoyillar o'zgarishsiz qolgan.

Bugungi kunda AQSh pensiya tizimining modeli ustuvor darajada aholining shaxsiy pensiya sug'urtasiga asoslangan (pensiya to'lovlarining yarmidan ko'pi ixtiyoriy jamg'arib boriladigan tizimlar hisobidan ta'minlanadi). Iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lganlarning asosiy qismi o'z ish joylari bo'yicha tashkil etilgan nodavlat pensiya tizimlarida ishtirok etadi. Bundan tashqari, banklarda, ulushli moliyaviy fondlarda, sug'urta kompaniyalarda o'z shaxsiy pensiya

¹⁰ Лебедева Л.Ф. Федеральная программа пенсионного обеспечения в США // «Россия и Америка в XXI веке», №2, 2014. С.29.

¹¹ Лебедева Л.Ф. США: государство и социальная политика/ М.: Наука, 2007. 271 с.

hisobraqamlarini ochish imkoniyati ham mavjud. Shunday bo'lishiga qaramay, Umumiy federal pensiya tizimi deb ataladigan va taqsimlanuvchi tamoyillarga qurilgan AQShning eng yirik davlat pensiya tizimi xususiy sektorda band bo'lgan aholining deyarli barchasini qamrab olgan.

Pensionerlarga pensiya to'lovlari ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan teng ulushlarda to'lanadigan maxsus soliq hisobidan moliyalashtiriladi. Ushbu soliq Federal pensiya sug'urtasi dasturining barcha ishtirokchilaridan soliqqa tortiladigan ish haqining eng yuqori darajasidan undiriladi. Ish haqining undan oshgan qismi soliqqa tortilmaydi.

Pensiya to'lovlari fuqarolarning shaxsiy ko'rsatkichlari: mehnat staji, to'lab borilgan badallar, sug'urtalangan shaxsning qaramog'ida pensiya yoshiga yetgan xotini(eri)ning borligi, 18 yoshgacha bo'lgan farzandlarining yoki nogiron bolasining mavjudligi kabilarga qarab tayinlanadi.

Federal ijtimoiy sug'urta dasturini amalga oshirish Ijtimoiy ta'minot boshqarmasi (Social Security Administration) zimmasiga yuklatilgan. U sug'urtalangan shaxsga ijtimoiy sug'urta raqamini beradi va tegishli ma'lumotlar bankini yuritadi, sug'urta dasturlarining amal qilishi ustidan nazoratni olib boradi, shuningdek, pensiya ta'minoti masalalarida diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligini nazorat qiladi. Bu Boshqarma pensiya to'lovlarining miqdorlarini hisoblab chiqaradi. Bundan tashqari, Boshqarma doirasida pensionerlarning ijtimoiy ta'minotini takomillashtirishga, amaldagi qonunchilikni rivojlantirish, pensiya dasturlarini baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib boriladi

Yollanish asosida ishlovchi barcha shaxslar davlatga o'zlarining mehnat daromadlaridan (ish haqi va boshqa ko'rinishdagi daromadlar) quyidagi miqdorlarda pensiya solig'ini to'laydilar:

65400 dollargacha bo'lgan yillik daromaddan 7,65 foiz hajmida, bu stavka ikki tarkibiy qismdan iborat: 6,20 foizi – keksalar, bevalar, yetimlar va nogironlarni ta'minlashga (“Retirement, survivors, and disability insurance”), 1,45 foizi – keksalarning tibbiy ta'minotiga (“Hospital insurance”) yo'naltiriladi;

65400 dollardan yuqori bo'lgan daromadlardan faqat 1,45 foiz miqdorida "Hospital insurance" dasturiga yo'naltiriladi.

Jismoniy shaxs to'laydigan 7,65 foizlik to'lovdan tashqari, ish beruvchi ham davlatga shuncha miqdorda, ya'ni ish haqi fondiga nisbatan 7,65 foiz sug'urta badali to'laydi. Shu tariqa Ijtimoiy ta'minot boshqarmasi har 100 dollarlik ish haqidan 15 dollar soliq undiradi.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar ham ishlovchi xodim sifatida, ham ish beruvchi sifatida umumiy miqdorda 15,3 foizlik sug'urta badali to'laydilar.

Bevosita mehnat bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar, ya'ni bank qo'yimalari va obligatsiyalar bo'yicha foizlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalardan daromadlar va shu kabi daromadlardan pensiya solig'i to'lanmaydi.

Ijtimoiy ta'minot boshqarmasida har bir mehnat qiluvchi bo'yicha uning butun mehnat qilgan yillarida to'lagan pensiya soliqlari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi.

AQSh fuqarolari, jinsidan qat'iy nazar, 65,5 yoshga to'lganlarida pensiya olish huquqini qo'lga kiritadilar. Nogironlik holatida esa birmuncha ertaroq (62 yoshda) pensiya chiqishlari mumkin bo'ladi, lekin har bir ishlab berilmagan yil uchun pensiya miqdori o'rtacha 7 foizga kamayadi. Agar sug'urta staji 10 yildan kam bo'lsa, pensiya umuman tayinlanmaydi, lekin bunday holatda kambag'allik bo'yicha nafaqa olish uchun murojaat qilish imkoniyati mavjud.

Yaqin yillar ichida amerikaliklarning pensiya yoshini 67 yoshgacha ko'tarish ko'zda tutilgan. Pensiyani hisoblashda sug'urta staji, sug'urta badallari miqdori va inflyatsiya darajasi inobatga olinadi. AQShda har oylik o'rtacha davlat pensiyasi \$1100-\$1200 ni tashkil qiladi¹².

¹² Как работает пенсионная система США - Экономика: деловой новостной сайт. URL:http://delo.ua/world/kak-rabotaet-pensionnaja-sistema-ssha-282949/?supdated_new=1424755852

AgeWatch indeksiga¹³ ko'ra, AQSh pensionerlarning hayot darajasi va farovonligi bo'yicha umumiy reytingida 8-o'rinni egallagan (2014-yil bo'yicha). Umuman olganda, ushbu reyting bo'yicha dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning egallagan o'rni quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval):

2-jadval

Dunyo mamlakatlarida keksalarning hayot sifati indeksi¹⁴
(2016-yil boshiga)

reyting	mamlakat	indeks	reyting	mamlakat	indeks
1	Shveytsariya	90.1	11	Daniya	78.6
2	Norvegiya	89.3	12	Yangi Zelandiya	76.0
3	Shvetsiya	84.4	13	Avstriya	74.4
4	Germaniya	84.3	14	Finlyandiya	72.7
5	Kanada	84.0	15	Irlandiya	72.0
6	Niderlandiya	83.0	16	Frantsiya	71.2
7	Islandiya	81.8	17	Avstraliya	71.0
8	Yaponiya	80.8	18	Isroil	70.1
9	AQSh	79.3	19	Lyuksemburg	69.5
10	Buyuk Britaniya	79.2	20	Panama	67.7

Shunday qilib, AQShda federal darajada davlat pensiya tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- majburiy pensiya sug'urtasi;
- ishlovchilar va ish beruvchilar tomonidan o'rnatilgan tartibda sug'urta badallarini to'lash majburiyatining qonuniy asosda o'rnatilishi;
- davlat tomonidan pensiya to'lovlarining o'z vaqtida to'lab borilishi va ularni tayinlash va hisoblash ustidan ishonchli nazorat tizimining o'rnatilishi;
- barcha toifadagi yollanib ishlovchilarning va yakka tartibdagi mehnat faoliyatida band bo'lganlarning pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinishi;
- pensiya yoshiga yetgan shaxslarning pensiya ta'minoti hozirda ishlovchi amerikaliklar hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutuvchi avlodlar birdamligi;
- pensiya sug'urtasi bilan sug'urtalangan shaxsning shaxsiy manfaatdorligi.

¹³ Dunyo mamlakatlari bo'yicha keksalarning hayot sifati va farovonligi indeksi

¹⁴ Global AgeWatch Index 2015 - URL: <http://www.helppage.org/>

Demak, AQShda ham davlat, ham xususiy pensiya tizimlari amal qiladi. Bu tizimlar yordamida amerikaliklar bir emas, uch turdagi pensiyalar bilan ta'minlanishlari mumkin: davlat pensiyasi, ish joyi orqali korporativ pensiya va shaxsiy pensiya hisobraqamlarini ochish asosida yo'lga qo'yiladigan xususiy individual pensiyalar.

Birdamlik (taqsimlanuvchi) pensiya tizimlari. Avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya tizimida pensionerlar o'z pullarini emas, balki hozirgi kunda ishlab turgan soliq to'lovchilarning soliq va majburiy to'lovlari evaziga shakllangan pullarni pensiya ko'rinishida oladilar. Bu tizimning "taqsimlanuvchi" deb atalishiga sabab – majburiy to'lovlar va sug'urta badallari evaziga jamlangan pul mablag'lari hozirda pensiya oluvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Bunga avvalgi, hozirgi va kelgusi avlodlar o'rtasida o'ziga xos kelishuv asos bo'ladi, shu sababli bu modelni yana "avlodlar birdamligi" modeli deb atash qabul qilingan.

"Avlodlar birdamligi" tamoyili iqtisodiy emas, faqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, faqat davlat tomonidan tartibga solingandagina hamda ijobiy demografik o'zgarishlar davridagina to'laqonli ishlashi mumkin. Bu tizimning mohiyati shundaki, pensiya jamg'armalariga pensiya sug'urtasi asosida tushgan mablag'lar pensiya hisobraqamlarida deyarli ushlanib qolmasdan pensionerlarga har oylik pensiya to'lovlari sifatida sarflab yuboriladi. Shu yo'l bilan amaldagi pensionerlarga o'z vaqtida va to'liq hajmdagi pensiya to'lovlari kafolatlanadi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari. Davlat pensiya dasturlari taqsimlash xarakteriga ega bo'lib, avvalo ijtimoiy funktsiyani bajarsa, AQShda mavjud bo'lgan boshqa barcha pensiya tizimlari jamg'arib boriladigan tamoyilga asoslangandir. Jamg'arib boriladigan pensiya fondlari iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishning yirik manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimlariga ham davlat, ham xususiy pensiya dasturlari kiradi. Davlat jamg'arma dasturlari davlat xizmatchilari hamda mahalliy hokimiyat organlari xodimlariga mo'ljallangan bo'lsa, federal pensiya tizimlari hukumat xodimlari va harbiy xizmatchilarni qamrab oladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya dasturlarining ikki turi mavjud bo'lib, biri o'rnatilgan to'lovlarga asoslangan bo'lsa (defined benefit plan)¹⁵, ikkinchisi o'rnatilgan badallarga (defined contribution plan)¹⁶ asoslanadi. O'rnatilgan to'lovga asoslangan pensiya dasturi uning ishtirokchilariga pensiyaning qat'iy miqdorini kafolatlaydi, uning hajmi har bir xodimning ish haqi miqdori va kompaniyadagi ish stajiga bog'liq bo'ladi. Odatda, qat'iy o'rnatilgan to'lovlarga asoslangan pensiya dasturlarida jamg'arma fondlari ish beruvchilarning ajratmalari hisobiga shakllanadi, yollanib ishlovchi ishchi-xizmatchilar esa bu fondlarga badal to'lamaydilar.

Belgilangan to'lovli pensiya dasturlarining dastur ishtirokchisi uchun bir qancha afzalliklari mavjud. Eng katta afzallik – pensiyaga chiqqandan so'ng, pensiya ko'rinishidagi yordamning aniqliligi hisoblanadi. Ushbu aniqlikning uchta jihati mavjud. Birinchidan, fuqaro yillik pensiya yordamining miqdorini biladi, chunki u o'rnatilgan formula yordamida aniqlanadi. Fuqaro davlat sektorida qancha vaqt ishlashini va uning maoshi qanchalik tez ko'tarilishini yetarlicha taxmin qila olishi tufayli, qatnashuvchi pensiyaga chiqqanida uning yillik pensiyasi qancha bo'lishi haqida yetarlicha yaxshi tasavvurga ega bo'ladi. Ikkinchidan, ko'p hollarda, yillik pensiya miqdori inflyatsiyani hisobga olgan holda ko'rsatiladi. Shuning uchun, u inflyatsiyani hisobga olgan holda, pensiyasining sotib olish qobiliyatiga putur yetishi haqida qayg'urmasligi kerak, pensiyaga chiqqandan so'ng u bir qancha yillar davomida hotirjam yashashi mumkin bo'ladi. Uchinchidan, belgilangan to'lovli pensiya dasturidagi pensioner uzoq yashashning moliyaviy oqibatlari haqida qayg'urmasligi kerak. Unga hayotining oxirigacha pensiya yordami kafolatlanadi. Belgilangan to'lovli pensiya dasturi yetarlicha a'zolarga ega bo'lganda, o'rtacha umr ko'rish davomiyligidan ko'ra uzoqroq yashaydigan a'zo uning uzoq yashashini moliyalashtirish uchun dasturning moliyaviy resurslari tugab qolishi mumkinligi haqida qayg'urmaydi, chunki bu

¹⁵ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008. P. 182

¹⁶ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008. P. 186

o'rtachadan ko'ra qisqaroq hayot kechirgan boshqa a'zolar bilan tenglashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xodim umrbod kafolatlangan pensiya sug'urtasiga ega¹⁷.

Ammo so'nggi 20-30 yillar ichida iqtisodiyotning xususiy sektorida o'rnatilgan badalga asoslanuvchi pensiya dasturlari qaror topdi va rivojlandi. Bu pensiya dasturlari odatda ish beruvchilar va yollanib ishlovchilarning teng ulushlardagi badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Bunda har bir ishtirokchi pensiya fondida o'zining shaxsiy hisobraqamiga ega bo'lishi va boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan taklif qilinadigan turli investitsion dasturlarni tanlab olishi mumkin. Shu tarzda har bir ishtirokchi pensiya hajmi bo'yicha o'zi mas'uliyatli bo'ladi va ma'lum darajagacha pensiya to'lovlarining miqdorini o'zi belgilaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat pensiya tizimi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlat pensiya fondiga ajratmalar ish beruvchilar va ishlovchilar tomonidan teng ulushlarda 7,65 foiz doirasida amalga oshiriladi, ajratmalarning yillik hajmi 65,4 ming dollar atrofida bo'lishi belgilab qo'yilgan. Yakka tartibda mehnat faoliyatini yuritadigan shaxslar bir vaqtning o'zida ham ish beruvchi sifatida, ham ishlovchi sifatida 15,3 foiz miqdorida to'lov to'laydi. Bu mablag'larning taxminan 5 dan 1 qismi tibbiy sug'urta davri tugagandan keyin pensiyaga chiqqan paytidagi tibbiyot sug'urtasiga yo'naltiriladi.

Keyingi yillarda birdamlik pensiya tizimi bir qator qiyinchiliklarni boshidan kechirmoqda. Bu qiyinchiliklar har 3 ta ishlovchiga 1 nafar pensioner to'g'ri kelayotganligi bilan bog'liq, vaholanki, pensiya tizimlari ilk bora joriy qilinayotgan 1935-yilda bitta pensiya oluvchiga 65 nafar ishlovchi to'g'ri kelgan.

AQSh Soliq kodeksi ishchi-xizmatchilarga asosiy ishlab turgan joyida tashkil qilingan belgilangan badal bo'yicha pensiya dasturlari doirasida o'zlarining shaxsiy jamg'ariladigan pensiya hisobraqamlariga ish haqlarining bir qismini soliqqa tortulgunga qadar o'tkazishga imkon beradi. Bundan tashqari, ish beruvchi

¹⁷ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008. P. 182

ham ixtiyoriy ravishda o'z xodimlarining shu hisobraqamlariga mablag'larni o'tkazishlari mumkin va ular ham soliqqa tortilmaydi. Ishchi-xizmatchilar ana shu to'lovlarni to'lagandan boshlab bu mablag'larga egalik qilish huquqini qo'lga kiritadilar. Lekin ish beruvchilarning ajratgan mablag'lariga bo'lgan huquqqa ishlovchilar ushbu dasturga qo'shilgandan keyin 5-6 yil o'tibgina ega bo'ladilar.

Jamg'ariladigan pensiya dasturlari, jamg'arish funktsiyasidan tashqari, investitsion daromad shaklidagi daromadlar hisobidan pensiya mablag'larini ko'paytirishi mumkin, bu yo'l bilan dastur ishtirokchilari odatdagi depozitlarning daromadlilik darajasidan birmuncha yuqori bo'lgan yillik 9 foiz atrofidagi daromadga ega bo'ladilar.

Pensiya mablag'larini ixtisoslashgan ishonch fondlariga, ancha tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar uchun esa – aniq emitentlarning aktsiya va obligatsiyalariga investitsiyalashga ruxsat etiladi. Shu yo'l bilan iqtisodiyot uchun juda muhim bo'lgan yana bir natijaga – investitsion samaraga erishiladi.

2010-yilning 31-mart holatiga barcha pensiya fondlarining jami aktivlari 9,838 trln. dollardan oshib ketdi, solishtiradigan bo'lsak, 2013-yilda AQShning YaIMi 16,8 trln. dollarni tashkil qilgan edi. Bu mablag'lar Amerika biznesini oziqlantiradigan qudratli investitsion resursdir.

3-jadval

**Mamlakatlar bo'yicha pensiya zaxiralari summasining YaIMdagi ulushi,
2015-yil¹⁸**

foizda

Mamlakat	Pensiya zaxiralari hajmi, mlrd. d.	YaIM, mlrd. dollar	YaIMga nisbatan foizi
Avstraliya	513	639	80,3
Buyuk Britaniya	1511	2155	70,1
Niderlandiya	708	571	124,0
AQSh	7541	11665	64,6
Shveytsariya	426	356	119,7
Shvetsiya	276	344	80,2
Yaponiya	2735	4665	58,6

¹⁸ «Эксперт РА» по материалам конференции «Развитие пенсионной системы России». www.raexpert.ru.

Pensiya jamg'armalarining qiymati investitsion daromadlarning o'sishi bilan barqaror o'sib boradi. Lekin inqirozlar paytida moliya bozorida moliyaviy dastaklar – aktsiya va obligatsiyalar narxining vaqtinchalik pasayishlari pensiya jamg'armalari qiymatini vaqtinchalik pasaytirib yuborishi ham mumkin.

Pensiya yoshiga yetgan shaxs jamg'arilgan mablag'larni olish huquqiga ega bo'ladi, yana bir necha yildan keyin esa jamg'armasining hammasini "yechib olishi" va uni davolanish, turistik sayohatlar, meros maqsadlarida ishlatishi mumkin bo'ladi. Bunday holatda albatta, hisob yopiladi va to'lovlar to'xtatiladi.

Ishlab turgan korxonasi bo'yicha tashkil qilinadigan jamoaviy pensiya dasturlarida ishtirok etishdan tashqari, har bir amerikalik fuqaro o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamini (IRA – individual retirement account)¹⁹ ham ochishi mumkin. Bu hisobraqamlarning ochilishi va yuritilishi ham qat'iy ravishda amerika qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Shaxsiy hisobraqamlarga ajratiladigan va soliqqa tortilmaydigan yillik ajratmalarning yuqori chegarasi limitlangan bo'lib, 2 ming dollarni tashkil qiladi. Bu hisobdan mablag'larni faqatgina 59,5 va undan katta yoshga kirgandagina yechib olish mumkin, lekin 79,5 yoshga kirgach shaxsiy hisobraqam majburiy tarzda yopiladi.

IRA bo'yicha jamg'arilgan mablag'lar bo'yicha soliq to'lanmaydi, ammo hisobdan mablag' yechish chog'ida va hisob yopilayotganda jamg'arilgan summadan daromad solig'i undiriladi. Odatda pensiya hisobraqamlari tijorat va jamg'arma banklarida, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida ochiladi. Ular istalgan vaqtda bir joydan boshqa joyga o'tkazilishi mumkin. Shuningdek, hisobraqamning egasi o'zi ham investitsion qaror qabul qilishda ishtirok etishi, ya'ni jamg'arilgan mablag'larning foydaliroq joylashtirilishida qatnashishi, yoki hisobni boshqarishni moliyaviy tashkilotlarga ishonib topshirib qo'yishi ham mumkin.

Shunday qilib, Amerika Qo'shma Shtatlarida pensiya sug'urtasining bir vaqtning o'zida 3 ta pog'onasi amal qiladi:

¹⁹ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008. P. 4

- hukumat tomonidan kafolatlangan davlat pensiya ta'minoti;
- xususiy (ish beruvchi tomonidan moliyalashtiriladigan) korporativ pensiya ta'minoti;
- ishlovchi xodim tomonidan banklar, ulushli pay fondlari va sug'urta kompaniyalarda shaxsiy pensiya hisobraqamlarini ochish va yuritishga asoslangan xususiy individual pensiya ta'minoti.

Ko'rsatib o'tilgan pensiya tizimlarining faoliyati natijasida Amerika fuqarolari munosib pensiya bilan ta'minlanadilar, AQSh hukumati esa biryo'la bir necha vazifalarni hal qiladi:

- pensiyaga chiqqanda barcha fuqarolar uchun minimal pensiya himoyasini kafolatlash;
- pensiya sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi barcha federal, hududiy va xususiy subyektlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash;
- ish beruvchilar o'rtasida yaxshi ish natijalarini ko'rsatgan ishchi-xizmatchilarga yuqori pensiya sug'urtasini taklif qilish bo'yicha raqobatni tashkil qilish;
- butun mehnat faoliyati davomida fuqarolarni o'zining keksaligi uchun mas'ulligini oshirishga undash;
- katta avlod vakillariga o'zlarining jamg'argan pensiya jamg'armalarini meros qoldirish yoki avlodlariga sovg'a qilish imkonini yaratish;
- qudratli ichki investitsion resursning shakllanishini ta'minlash.

2.2. Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimining xususiyatlari

Rossiyada pensiya tizimi – Rossiya Federatsiyasida fuqarolarni pensiya shaklida moddiy ta'minlash maqsadidagi huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy institutlar va me'yorlar yig'indisi. Zamonaviy shakldagi Rossiya pensiya tizimi 2002-yil 1-yanvardan boshlab joriy qilingan bo'lib, mehnat pensiyalari, davlat pensiya ta'minoti bo'yicha beriladigan pensiyalarni hamda nodavlat pensiyalarini

shakllantirish, tayinlash va to'lash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi.

AgeWatch indeksiga ko'ra, Rossiya 2015-yilda pensionerlar uchun munosib hayot darajasini ta'minlash bo'yicha reytingda 65-o'rinni egallagan.²⁰

Rossiya Federatsiyasida demografik vaziyat va uning 2050-yilgacha bo'lgan prognozlari shundan dalolat bermoqdaki, mamlakat aholisining kamayib borishi fonida pensiya yoshidagi aholi sonining o'sib borishi, shuningdek, mehnatga qobiliyatli aholi sonining kamayishi kutilmoqda. Buning natijasida 2006-yilda kuzatilgan 32 foizdan iborat bo'lgan demografik bosim 2050-yilga kelib 61 foiz bo'lishi kutilmoqda, ya'ni qariyb 2 barobar ortishi bashorat qilinmoqda. Bu holat pensiya bilan ta'minlash masalalarida muayyan qiyinchiliklarga olib kelishi muqarrar.

4-jadval

Rossiyada demografik ko'rsatkichlar prognozi²¹

Ko'rsatkichlar	2006-yil	2050-yil	o'zgarishi
Aholi soni, mln. kishi	142	112	-21
Pensiya yoshidagi aholi soni, mln.kishi	29	35	+20
Mehnatga qobiliyatli aholi soni, mln.kishi	90	57	+37
Demografik bosim koeffitsiyenti, foizda	32	61	-


2015-yildan boshlab majburiy pensiya sug'urtasi tizimida ishlovchi fuqarolarning sug'urtaviy pensiyalari va pensiya jamg'armalari shakllana boshladi.

Ishlovchi xodimning kelgusida oladigan pensiyasining asosini ish beruvchining Pensiya fondiga majburiy sug'urta badallari tashkil qiladi. 2015-yilda Rossiya qonunchiligi bo'yicha bu ajratmalar xodimnig yillik mehnat haqinnig 22 foizini tashkil qiladi va har bir ish o'rnidan 711 ming rubldan iborat bo'ladi.

²⁰https://www.ageinternational.org.uk/Documents/Global_AgeWatch_Index_2015_HelpAge.pdf

²¹ Обзор ключевых показателей негосударственных пенсионных фондов. 2015. № 4.
http://www.cbr.ru/finmarkets/files/supervision/review_npf_240516.pdf

Shundan 6 foizi xodimning pensiya jamg'armasiga yo'naltirishi mumkin, 16 foizi esa majburiy sug'urta pensiyasiga yo'naltiriladi. Ishlovchining tanloviga ko'ra, 22 foiz ajratmaning hammasi sug'urtaviy pensiyaga yo'naltirilishi ham mumkin.



3-rasm. Davlat pensiyasining tarkibiy tuzilishi²²

Rossiya qonunchiligidagi so'nggi o'zgarishlarga ko'ra, sug'urtaviy pensiya ballarda hisoblanadi: 2015-yildan boshlab fuqarolarning pensiya huquqlari pensiya ballari asosida shakllanadi (yakka tartibdagi pensiya koeffitsiyent). Ilgari shakllangan barcha pensiya huquqlari pensiya ballariga konvertatsiya qilingan bo'lib, sug'urtaviy pensiya tayinlashda hisobga olinadi.

Sug'urtaviy pensiyaning quyidagi turlari amal qiladi:

- qarilik pensiyasi;
- nogironlik pensiyasi;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Qarilik bo'yicha sug'urtaviy pensiya olish huquqi quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

²² http://www.pfrf.ru/grazdanam/pensions/kak_form_bud_pens/ manba ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

– erkaklar – 60 yoshga yetganda, ayollar – 55 yoshga yetganda. Fuqarolarning ayrim toifalari muddatidan oldin qarilik pensiyasiga chiqishi mumkin;

– 2017-yil 1-yanvardan boshlab Rossiya Federatsiyasida davlat lavozimlarini egallab kelgan shaxslar uchun oshirilgan pensiya yoshi amal qiladi, bu yosh har yili 6 oyga, erkaklar 65 yoshga, ayollar esa 63 yoshga etgunga qadar, oshirib boriladi;

– 15 yildan kam bo‘lmagan (2024-yildan boshlab) sug‘urta stajining mavjud bo‘lishi (28.12.2013. № 400-FZ sonli Qonunning 35-moddasi bilan ko‘zda tutilgan holatlarni inobatga olgan holda);

– 30 ball dan kam bo‘lmagan (2025-yildan boshlab) minimal pensiya ballarining mavjud bo‘lishi 28.12.2013. № 400-FZ sonli Qonunning 35-moddasi bilan ko‘zda tutilgan holatlarni inobatga olgan holda).

Pensiya ballarining miqdori majburiy pensiya sug‘urtasi tizimiga hisoblangan va to‘langan sug‘urta badallariga va sug‘urta (mehnat) stajiga bog‘liq bo‘ladi.

Fuqaroning har bir ishlagan va majburiy pensiya sug‘urtasiga ish beruvchi tomonidan yoki shaxsan o‘zi tomonidan sug‘urta badallarini to‘lab borgan yili uchun pensiya ballari ko‘rinishidagi pensiya huquqlari shakllanadi. 2021-yildan boshlab pensiya ballarining maksimal soni 10 ball bo‘lishi mumkin, 2017-yilda maksimal 8,26 ball etib belgilangan.²³

Ishlovchi xodim majburiy pensiya sug‘urtasining qaysi variantini tanlaganligiga qarab yillik pensiya ballari shakllanadi. Faqat sug‘urtaviy pensiyani tanlagan bo‘lsa, yillik pensiya ballarining maksimal miqdori 10 ball bo‘lishi mumkin, chunki barcha sug‘urta badallari sug‘urtaviy pensiyaning shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Agar fuqaro bir vaqtning o‘zida har ikkala variantni, ya’ni ham sug‘urtaviy, ham jamg‘ariladigan pensiya tizimini tanlagan bo‘lsa, yillik pensiya ballarining maksimal miqdori 6,25 ball bo‘lishi mumkin, chunki pensiya

²³ Manba: http://www.pfrf.ru/grazdanam/pensions/kak_form_bud_pens/

badallarining 27,5 foizi pensiya jamg'armalarining shakllanishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

5-jadval

Rossiya Federatsiyasida sug'urtaviy pensiyani hisoblashdagi individual pensiya koeffitsientlari²⁴

Yil	Minimal sug'urta staji	Individual pensiya koeffitsientlari ning minimal summasi	Yillik individual pensiya koeffitsientlarining maksimal miqdori	
			jamg'ariladigan pensiyaning shakllanishi rad etilganda	jamg'ariladigan pensiyaning shakllanishida
2015	6	6,6	7,39	7,39*
2016	7	9	7,83	7,83*
2017	8	11,4	8,26	8,26*
2018	9	13,8	8,70	8,70*
2019	10	16,2	9,13	9,13*
2020	11	18,6	9,57	5,98
2021	12	21	10	6,25
2022	13	23,4	10	6,25
2023	14	25,8	10	6,25
2024	15	28,2	10	6,25
2025 va undan keyin	15	30	10	6,25

*2016-yildan 2019-yilgacha Majburiy pensiya sug'urtasi tizimida fuqaro pensiya ta'minotining qaysi variantini tanlashidan qat'i nazar, barcha fuqarolarda hisoblangan barcha sug'urta badallaridan kelib chiqqan faqat sug'urtaviy pensiya olish huquqi yuzaga chiqadi, shu sababli bu yillar ichida yillik individual pensiya koeffitsientlarining maksimal miqdori pensiya ta'minotining ikkala variantida ham bir xil qilib belgilangan.

²⁴ Manba: http://www.pfrf.ru/grazdanam/pensions/kak_form_bud_pens/

1967-yilda tugʻilgan va undan yosh fuqarolar 2015-yilning 31-dekabrigacha MPS tizimida sugʻurtaviy va jamgʻariladigan pensiyani tanlagan boʻlsa, istalgan vaqtda jamgʻariladigan pensiyadan voz kechishi va 6 foizlik sugʻurta badalini ham faqat sugʻurtaviy pensiyaga yoʻnaltirishi mumkin.

Fuqarolar tomonidan pensiya taʼminotining u yoki bu variantini tanlashda sugʻurtaviy pensiya davlat tomonidan har yili indeksatsiya qilib boriladi va kafolatli oshib boradi. Jamgʻarilgan pensiya mablagʻlarini esa fuqaro tanlagan nodavlat pensiya fondi (NPF) yoki boshqaruvchi kompaniya (BK) moliya bozorida investitsiyalaydi. Pensiya jamgʻarmalarining daromadlilik darajasi ularning qay darajada qulay va foydali investitsiya qilinganligiga bogʻliq boʻladi, yaʼni NPFlari yoki BKlar zarar koʻrib qolishi ham mumkin, u holda faqat toʻlangan sugʻurta badallari summasining qaytarilishi kafolatlanadi. Shuningdek, pensiya jamgʻarmalari indeksatsiya qilinmaydi. 1966-yildan oldin tugʻilgan fuqarolar pensiya taʼminoti faqat sugʻurtaviy pensiya asosida yoʻlga qoʻyiladi.

Shunday qilib, qarilik boʻyicha sugʻurtaviy pensiya quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$C\P = \Pi\P\P * C\P\P\P + \Phi B^{25}, \quad (2.1.)$$

bu yerda: **C\P** – sugʻurtaviy pensiya miqdori;

\Pi\P\P – fuqaroga sugʻurtaviy pensiya tayinlash sanasiga hisoblangan barcha pensiya ballarining yigʻindisi;

C\P\P\P – sugʻurta pensiyasi hisoblangan yildagi pensiya ballining qiymati.

2017-yilda bu qiymat 78,58 rublga teng boʻlgan. Bu miqdor davlat tomonidan indeksatsiya qilib boriladi. **\Phi B** – qatʼiy belgilangan toʻlov hajmi.

2017-yil 1-fevral holatiga bu miqdor 4805,11 rubl qilib belgilangan. Bu summa ham davlat tomonidan indeksatsiya qilinadi.

Yuqoridagi koʻrsatkichlarni bilgan holda 2017-yil uchun sugʻurtaviy pensiya miqdorini quyidagi formula asosida hisoblash mumkin:

²⁵ <http://www.pfrf.ru> - Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi rasmiy sayti maʼlumotlari asosida keltirildi.

$$SP = IPK * 78,58 + 4805,11 \quad (2.2.)$$

Rossiya Federatsiyasida pensiya to'lovlarining prognoz qilinayotgan tarkibi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

6-jadval

Rossiya Federatsiyasida pensiya to'lovlarining prognoz qilinayotgan tarkibi, foizda²⁶

Pensiyalarning turlari	2010-yil	2020-yil	2030-yil	2040-yil	2050-yil
Bazaviy pensiya	43,6	47,2	47,2	40,0	32,9
Sug'urtaviy pensiya	56,4	52,8	47,2	40,0	34,2
Jamg'ariladigan pensiya	-	-	5,6	20,0	32,9
Hammasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pensiya to'lovlarining tarkibida 2020-yillargacha bo'lgan davrda sug'urtaviy pensiya ulushining katta bo'lishi saqlanib qoladi. 2015-yildan boshlangan islohotlarning natijasida esa bazaviy pensiya ulushining 2050-yilgacha 32,9 foizgacha, sug'urtaviy pensiyaning ulushi 34,2 foizgacha kamayishi hamda jamg'ariladigan pensiya ulushining 2030-yildagi 5,6 foizidan 2050-yillardagi 32,9 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi ham, Yevropaning boshqa mamlakatlari singari, o'zining pensiya tizimini, tarkib topgan demografik vaziyat, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, siyosiy holati, o'rta va uzoq istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlarning kutilayotgan darajasiga qarab isloh qilish yo'lidan bormoqda. Demografik o'zgarishlarning salbiy ta'sirida sug'urtaviy pensiya mexanizmlarining yetarli darajada samara bermayotganligini angagan holda, turli nodavlat jamg'ariladigan pensiya tizimlari rivojlanmoqda. Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi, ushbu tizim iqtisodiy va moliyaviy inqirozlardan vaqti-vaqti bilan zarar ko'rmoqda. Shu sababli Rossiyada ham

²⁶ Manba: http://www.pfrf.ru/grazdanam/pensions/kak_form_bud_pens/

pensiya tizimidagi islohotlarni amalga oshirish masalasi hukumat va siyosiy doiralarning kun tartibidagi muhim vazifaligini qolmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqib, ularni solishtirish, umumiy va farqli jihatlari, ustun va zaif jihatlarni ko'rsatish mumkin (7-jadval).

7-jadval

Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari²⁷

Tavsiflar	AQSH		Rossiya	
Pensiya yoshi	erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
	65,5 yosh	65,5 yosh	60 yosh	55 yosh
Minimal mehnat staji	10 yil		5 yil (2024-yildan boshlab – 15 yil)	
Baza* (soliq to'lagunga qadar yillik ish haqi summasi)	65,4 ming dollar		711 ming rubl (11 663 dollar)	
Sug'urta badali tarifi	ishlovchi	ish beruvchi	ishlovchi	ish beruvchi
	7,65%	7,65%	-	22%
AgeWatch indeksi	8		65	
Pensiyaning o'rtacha miqdori*	1100-1200 dollar		12, 9 ming rubl (215 dollar)	

* 1 dollar = 60.96 rubl bo'lgan paytdagi ko'rsatkichlar keltirilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasi pensiya tizimlarining farqli jihatlari har bir mamlakat davlatlarining iqtisodiy salohiyatidagi farqlar, milliy ijtimoiy ta'minot tizimlarining rivojlanganlik darajasi, demografik, madaniy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari bilan asoslaniladi.

Har ikki davlat pensiya tizimlarining o'xshash jihatlari esa ularda avlodlar birdamligiga asoslangan sug'urtaviy pensiya tizimlari bilan bir vaqtda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimlari ham amal qilishida ko'rinadi. Lekin AQShda pensiya ta'minotining ularning shtatlar bo'yicha bir-biridan farq qiladigan turli-tuman dasturlari amal qilishi, korporativ pensiya tizimlarining rivojlanganligi, moliya


²⁷Manba: <http://pensiaexpert.ru/calculator/primery-rascheta-pensionnyx-vyplat-s-vklyucheniempk-pensionnogo-koefficienta.html> asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bozorida ishtiroki ko‘lamlari, inqirozlarga ta’sirchanligi kabi o‘ziga xosliklari mavjud ekanligini e’tirof etish lozim.

2.3. O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minotini boshqarish va tashkil qilish amaliyoti

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish byudjetdan tashqari Pesiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko‘rsatilgan turdagi pensiya va nafaqalarni to‘lash uchun sarflanadi (5-rasm):



4-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi²⁷

²⁷ “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom” (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan tasdiqlangan) asosida muallif tomonidan tuzildi.

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar.

Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya'ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari to'lanadi.

Yoshga doir pensiyalar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar (fuqaroning necha yoshda bo'lganida necha yillik zarur ish stajiga ega bo'lishi kerakligi Qonunda belgilangan) mavjud ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan boshqa a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar, ularni tayinlash va to'lash tartiblari haqida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlarda batafsil berilgan.

Dafn marosimi uchun nafaqalar O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi 2010-yil 27-dekabrda O'RQ-276-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyunda qabul qilingan 174-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu hujjatga muvofiq, nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Ushbu nafaqa:

- davlat pensiyasi oluvchi pensioner;

- davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro;
- xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi;
- bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);
- ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda tayinlanadi.

Ushbu ko'rsatilgan shaxslar vafot etganda nafaqa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi. Faqatgina xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etganda nafaqa korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan Nizomda belgilangan tartibda tayinlanadi.

Ilgari pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining uch baravaridan kam bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanardi. 2014-yil 4-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, 2015-yil 1-yanvardan e'tiboran dafn etish nafaqasi aniq miqdorda — eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida beriladi. Mazkur nafaqa pensioner vafot etganidan keyin 60 kun ichida murojaat etilgan taqdirda olinadi.

Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 26-moddasiga asosan, mazkur nafaqa pochtaning tarkibiy bo'linmasi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan taqdim etilgan vedomost va ariza beruvchining pasporti asosida naqd pul mablag'lari bilan to'lanadi.

Davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi.

Bunday toifadagi fuqarolarga:

- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari);
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqalar ish stajiga ega bo'lmagan, shuningdek, 7 yildan kam ish staji mavjud bo'lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga etganlarida, ayollarga — 60 yoshga etganlarida mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'lmagan taqdirda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqalari nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironlarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda tayinlanadi va to'lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo'qotilganda) Pensiya jamg'armasi bo'limlari yo'llanmalari bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo'lmagan shaxsning qaramog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatli bo'lmagan a'zolari boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a'zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – nafaqaning 100 foizi;

- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga – nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga – nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga belgilangan miqdorda bitta umumiy nafaqa tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumiy miqdori oluvchilarning umumiy soniga bo'linadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo'lgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo'yicha nafaqalarning bir turi tayinlanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning hududiy bo'linmalari tomonidan G'aznachilikning bo'linmalarida hisobraqamlari ochiladi.

Jamg'armaning hududiy boshqarmalari to'lov to'lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar to'lash uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg'armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Jamg'arma xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:

joriy to'lov oyining 15-kunigacha - o'tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;

joriy to'lov oyining 27-kunigacha - amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlar uchun mablag'larni banklarning hisob raqamlariga o'tkazadi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo'yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun

nafaqalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo'shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni to'lashga mablag'larni moliyalashtiradi.

Jamg'armaning hisob raqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi.

8-jadval

Toshkent shahar Yashnobod tumanida Pensiya jamg'armasidan pensiya va nafaqa oluvchilar to'g'risida ma'lumot²⁹

t/r	Pensiya va nafaqa oluvchilar	2018-yil may oyi bo'yicha pensiya va nafaqa oluvchilar	
		soni (kishi)	ulushi (%)
	Jami pensiya va nafaqa oluvchilar soni, jami (1+2+3+4)	30463	100
1.	Yoshga doir pensiya oluvchilar	26441	86,8
2.	Nogironlik pensiyasini oluvchilar, sh.j.	2707	8,9
	I-guruh nogironligi bo'yicha	236	0,8
	II-guruh nogironligi bo'yicha	2271	7,5
	III-guruh nogironligi bo'yicha	200	0,7
3.	Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar	990	3,2
4.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq, nafaqa oluvchilar	325	1,1

Tahlil qilinayotgan Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yashnobod tuman bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, tumanda 2018-yil may holatiga 30463 nafar pensiya va nafaqa oluvchi ro'yxatda turadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, jami hisobda turganlarning 86,8 foizini yoshga doir pensiya oluvchilar, 8,9 foizini nogironlik pensiyasini oluvchilar, 3,2 foizini boquvchisini

²⁹ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yashnobod tuman bo'limi hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yo‘qotganlik uchun pensiya oluvchilar tashkil etadi. Ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,1 foizni tashkil qilgan.

Yashnobod tuman BTPJ hisobot ma’lumotlarini tahlil qilish asosida pensiya va nafaqa oluvchilar soniga pensionerlarning boshqa hududga ko‘chib ketishi, vafoti, yangitdan murojaat qilinganligi, nogironlikdan chiqarilishi, bir guruh nogironligidan boshqasiga o‘tkazilishi kabi omillar sabab bo‘lganligini kuzatish mumkin.

9-jadval


**Toshkent shahar Yashnobod tumani bo‘yicha pensiya va nafaqalar uchun
ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot³⁰**

t/r	Pensiya va nafaqalar turlari va toifalari	2018-yil may oyi bo‘yicha	
		miqdori (so‘m)	ulushi (%)
	Jami pensiya va nafaqalar, jami (1+2+3+4)	23574910299,13	100
1.	Yoshga doir pensiya bo‘yicha	19568141539,86	83,0
2.	Nogironlik pensiyasini bo‘yicha, sh.j.	1760404249,10	7,5
	I-guruh nogironligi bo‘yicha	182024270,01	0,8
	II-guruh nogironligi bo‘yicha	1512165311,39	6,4
	III-guruh nogironligi bo‘yicha	66214667,71	0,3
3.	Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bo‘yicha	422756399,26	1,8
4.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq, nafaqalar bo‘yicha	63203861,80	0,3

Jadval ma’lumotlaridan shuni kuzatish mumkinki, faqatgina Yashnobod tumani bo‘yicha pensiya va nafaqalarni to‘lash bilan bog‘liq bir oylik xarajatlar 19568,1 mln.so‘m hajmdagi mablag‘ni talab etar ekan. Bu mablag‘larning 83 foizi

³⁰ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Yashnobod tuman bo‘limi tomonidan taqdim etilgan talabnomalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

yoshga doir pensiyalarni to‘lashga, 7,5 foizi nogironlik pensiyalariga, 1,8 foizi boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalariga, 0,3 foizi esa nafaqalarga sarflanadi.



5-rasm. Toshkent shahar Yashnobod tumani bo'yicha pensiya va nafaqalar uchun ajratiladigan mablag'larning tarkibi va tuzilishi³¹

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bir qator to'lovlari pensiya jamg'armasiga boshqa manbalardan qoplab beriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq, Yashnobod tumani bo'yicha nafaqalar va boshqa kompensatsion to'lovlar uchun mablag'lar davlat byudjetining Respublika byudjeti hisobidan qoplanadi.

Pensiya jamg'armasining tuman bo'limi tomonidan amalga oshirilayotgan to'lovlarning o'rtacha 94-95 foizi hisobot oyi davrida budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisob raqamlariga pensiya, nafaqa va oylik kompensatsiyalar uchun Toshkent shahar hududiy boshqarmasidan tuman bo'limiga ajratilgan subvensiyalar hisobidan, 4-5 foizi davlat byudjetining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan. Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan asosan bolalikdan nogironlarga ijtimoiy nafaqalar, bola tug'ilganda bir martalik suyunchi puli, shuningdek, uy-joy kommunal to'lovlari imtiyozlari o'rniga oylik kompensatsiya to'lovlari uchun mablag'lar moliyalashtiriladi.

³¹ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yashnobod tuman bo'limi tomonidan taqdim etilgan Talabnomalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Toshkent shahar Yashnobod tumani bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq to'lanadigan nafaqalarning miqdori, ularni oluvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar 2018-yilning may oyi ma'lumotlari misolida quyidagi jadvalda keltirilgan.

10-jadval

Toshkent shahar Yashnobod tumani byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq nafaqalar to'g'risida ma'lumot³²

t/r	Nafaqalar turlari	2018-yil may oyi bo'yicha		
		nafaqa oluvchilar soni	mablag' miqdori (so'm)	ulushi (%)
1.	Bolalikdan nogironlarga ijtimoiy nafaqalar	1217	421752893,18	86,3
2.	Bola tug'ilganda bir martalik suyunchi puli	72	24353260,00	5,0
3.	Uy-joy kommunal to'lovlari imtiyozlari o'rniga oylik kompensatsiya to'lovlari	673	42748245,60	8,7
	Jami	1962	488854398,78	100

Tahlil natijalariga ko'ra, ajratilgan mablag'larning 86,3 foizini bolalikdan nogironlarga ijtimoiy nafaqalar, 5,0 foizini bola tug'ilganda bir martalik suyunchi puli, 8,7 foizini uy-joy kommunal to'lovlari imtiyozlari o'rniga oylik kompensatsiya to'lovlari tashkil qiladi.

Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi hisoblangan va to'langan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar bo'yicha har oyda oylik tezkor ma'lumotlarni tuzadi va umumlashtiradi. Ma'lumotlarda Pensiya jamg'armasidan to'langan mablag'lar hamda respublika byudjetidan moliyalashtirilgan mablag'lar alohida ustunlarda ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobotlarda har oyning boshiga Pensiya jamg'armasi

³² Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yashnobod tuman bo'limi tomonidan taqdim etilgan Talabnomalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

hisobraqamlarida qolgan qoldiq hamda barcha to'lovlarning amalga oshirilishi natijasida hisobot davri oxiriga qoldiq summalar ham aks ettiriladi.

2-bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunga kelib pensiya ta'minoti har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari pensiya tizimining xususiyatlari pensiyaga chiqqanda barcha fuqarolar uchun minimal pensiya himoyasini kafolatlashi, pensiya sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi barcha federal, hududiy va xususiy subyektlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash zarurligi, butun mehnat faoliyati davomida fuqarolarni o'zining keksaligi uchun mas'ulligini oshirishga undashi, katta avlod vakillariga o'zlarining jamg'argan pensiya jamg'armalarini meros qoldirish yoki avlodlariga sovg'a qilish imkonini yaratishi, qudratli ichki investitsion resursning shakllanishini ta'minlashi bilan xarakterlidir.

Rossiya Federatsiyasida esa pensiya ta'minotidagi islohotlar davlat aktivlarini pensiya tizimining xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltirish, pensiya tayinlashda tabaqalashgan yondashuvni ta'minlash, ya'ni past daromadli fuqarolarga minimal pensiyalarni kafolatlash, pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich 2021-yilgacha oshirib borish, nodavlat pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari pensiya qonunchiligida nazarda tutilgan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning to'g'ri tayinlanishi, hisoblanishi, qayta hisoblanishi hamda to'lanishi uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar bo'lib hisoblanadi, shuningdek, pensiya ta'minotidagi islohotlar ularning faoliyatida bevosita aks etadi, jamiyatning keksa vakillari va alohida toifalari bu tashkilotlarning faoliyatiga qarab mamlakatdagi pensionerlarga bo'lgan davlat e'tiboriga baho beradilar. Shu sababli Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi

oldida islohotlarning asosiy maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etish va ijobiy natijalarini ko'rsatishdek muhim mas'uliyat turibdi.

3-BOB. JAHONDAGI PENSIYA TA'MINOTI TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IJOBIY TAJRIBALARI

3.1. Jahondagi pensiya ta'minoti tizimlarining rivojlanish tendensiyalari

Ilmiy adabiyotlar tahlili xorijiy mamlakatlar ilmiy doiralarida pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish, optimal pensiya tizimi modelini tanlash borasida ilmiy tortishuvlar davom etayotganligini ko'rsatmoqda.³³ Ayrim tadqiqotchilar pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy asosini ustun darajada taqsimlanuvchi komponentlar tashkil etishi zarur³⁴, deb hisoblashsa, boshqalari jamg'ariladigan komponentlar tarafdori hisoblanadilar³⁵.

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan – aralash pensiya tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to'lanayotgan pensiya darjasi nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi³⁶.

³³ Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to'plami.– T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. 10-bet.

³⁴ Disney R. Public pension reform in Europe: policies, prospects and evaluation // The World Economy. 2003. Vol 26. № 10. P. 1425–1445. Соловьев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. //Журнал НЭА, №3(15), 2012. Роик В.Д. Эволюция пенсионных систем: мировые тенденции и опыт России //Человек и Труд. 2008. № 8. <http://www.chelt.ru/2008/8-08/roik808.html>.

³⁵ Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.; Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience// Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.;

³⁶ Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.; Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.

Jahon amaliyotida jamg'arib boriladigan va taqsimlanuvchi pensiya modellari sof holda kam uchraydi. Bir vaqtning o'zida majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan qismlari mavjud pensiya tizimi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo mamlakatlar orasida faqat Norvegiyada amal qiladi³⁷.

Quyidagi jadvalda turli mamlakatlar uchun pensiya tizimlari doirasida hisoblangan qoplash koeffitsienti keltirilgan. Ushbu ko'rsatkich milliy pensiya ta'minoti tarkibida taqsimlanuvchi davlat, majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya komponentlarining roli va ahamiyati to'g'risida fikr yuritish imkonini beradi. Tahlillarning ko'rsatishicha, dunyoning aksariyat mamlakatlarida pensiya ta'minotining moliyaviy asosini taqsimlanuvchi davlat pensiya tizimi tashkil etadi. Shu bilan birga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimlari pensiyalarni moliyalashtirishda sezilarli ahamiyat kasb etishi mumkin. Umuman, IHTT mamlakatlari bo'yicha jamg'arib boriladigan komponentlar qoplash koeffitsientini 25 punkt qo'shsa, ushbu ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha 10 punktga teng (11-jadval).

11-jadval

Turli mamlakatlarda qoplash koeffitsienti, foizda³⁸

Davlatlar	Davlat taqsimlanuvchi pensiya tizimlari	Majburiy jamg'arib boriladigan tizimlar	Ixtiyoriy jamg'arib boriladigan tizimlar	Jami
Belgiya	41	-	15,1	56,1
Kanada	39,2	-	33,9	73,1
Chili	4,8	37,2	-	42,0
Chexiya	43,5	-	39,2	82,7
Germaniya	42,0	-	16,0	58,0
Irlandiya	36,7	-	43,0	79,7
Yangi Zelandiya	40,6	-	14,1	54,7
Norvegiya	45,7	6,8	11,3	63,8
Shvetsiya	33,9	21,7	-	55,6
Shveytsariya	32,0	23,1	-	55,1
Buyuk Britaniya	32,6	-	34,5	67,1
AQSh	38,3	-	37,8	76,1

³⁷ Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.

³⁸ OECD Pensions at a Glance 2013: OECD and G20 Indicators // OECD Publishing. 2013. 364 p.

Rossiya	33,0	2,0	-	35,0
Saudiya Arabistoni	100,0	-	-	100,0
JAR	-	-	54,5	54,5
Yevropa Ittifoqi	47,0	-	-	57,6
IHTT	40,6	-	-	67,9

Tahlillar ko'rsatishicha, jahon amaliyotida jamg'ariladigan komponentlar bilan qo'llab-quvvatlanayotgan taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti tizimlari yetakchi mavqega ega bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, milliy pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash taqsimlanuvchi va jamg'arib boriladigan pensiya elementlarini o'zida mujassamlashtigan aralash pensiya tizimlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. Pensiya islohotlari doirasida amalga oshirilayotgan asosiy o'zgarishlar davlat taqsimlanuvchi pensiya ta'minoti tizimini (Shvetsiya, Italiya, Vengriya, Polsha va b.) saqlab qolgan holda ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarini yaratish. Aksariyat mamlakatlarda milliy davlat pensiya dasturlari qisqartirilib, tijorat usullari va bozor mexanizmlari orqali tartibga solinadigan individual jamg'arib boriladigan schetlarga o'tildi. Natijada amaldagi, oldingi ish haqiga bog'liq foizlar ko'rinishida hisoblanadigan pensiyalar to'lash tizimlari shartli-jamg'arib boriladigan schetlarga asoslangan pensiya tizimlariga almashtiriladi. Bunda aksariyat mamlakatlarda qator yangiliklar joriy etildi. Jumladan, ball asoslangan yig'ishga asoslangan (pensiya olish huquqi shartli birliklarda aks etiriladigan) tizimdan farqli ravishda pensiya huquqi sug'urtalanuvchilarning individual schetlarida ishlovchilar tomonidan to'langan sug'urta badallari va ularning hisobiga ish beruvchilar o'tkazgan mablag'larga teng miqdordagi mablag'lar orqali aks ettiriladi. Ushbu mexanizm sug'urta badallari va pensiyalar miqdori o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni o'rnatish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, badallar va to'lovlar miqdorini belgilab qo'yish milliy pensiya tizimlarida avlodlar birdamligi va mas'uliyati mutanosibligini ta'minlash

imkonini beradi. Pensiya resurslarini hisobga olish va ulardan foydalanish mexanizmi milliy pensiya tizimining demografik vaziyatning o'zgarishiga moslashish darajasini oshiradi.

Shartli-jamg'ariladigan pensiya tizimlari qayd etib o'tilgan ijobiy jihatlari bilan bir qatorda qator kamchiliklarga ham ega. Jumladan, ushbu tizimda resurslarni bir avlod doirasida kam ish haqiga ega fuqarolar yoki nogironlar foydasiga qayta taqsimlash mexanizmi mavjud emas. Shuning uchun shartli-jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarida byudjet daromadi hisobidan minimal daromadlarga ega keksa yoshdagilar va nogironlarni pensiya bilan ta'minlash uchun qo'shimcha pensiya institutlari tashkil etiladi. Masalan, Shvetsiya va Polshada minimal, kafolatlangan pensiya olish huquqi pensiya miqdori belgilab qo'yilgan minimal darajaga etmaydigan pensionerlar yoki nogironlar uchun beriladi. Shvetsiyada pensionerlarning 30 foizga yaqini kafolatlangan, minimal pensiyalar hisobidan qo'shimcha to'lovlar olishadi.

Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlarida 1998-2020-yillar ichida jamg'arib boriladigan pensiya tizimlariga o'tish rejalashtirilgan. Ushbu davrda taqsimlanuvchi davlat pensiya tizimlari hisobidan amalga oshiriladigan pensiya to'lovlari ulushi 84 foizdan 64 foizga qadar qisqarishi, jamg'arib boriladigan kmoponentlar ulushi esa 12 foizdan 29 foizga qadar ortishi kutilmoqda. Ixtiyoriy pensiya ta'minoti ulushi 1,5 foizdan 4,5 foizgacha ortishi, xususiy pensiya aktivlari esa 2 mlrd. yevrodan 11,8 mlrd. yevrogacha o'sishi mumkin³⁹.

2. Pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari – pensiya yoshi, sug'urta badallari miqdori, pensiyalarni indeksatsiya qilish tartibini qayta ko'rib chiqish. Pensiya yoshi pensionerlar soni va sug'urta badallarini to'lovchilar soni o'rtasidagi nisbatni tartibga soluvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko'ra XXI asr o'rtalariga kelib yer shari aholisi soni 9 mlrd. kishidan oshib ketadi. Shu bilan bir qatorda tug'ilish darajasi o'rtacha ko'rsatkichga qadar pasayib 0,215 promilleni tashkil etishi, kutilayotgan umr davomiyligining o'rtacha ko'rsatkichi 76 yoshni, rivojlangan mamlakatlarda esa 80

³⁹ Назаров В.С. Актуальные проблемы пенсионной реформы. М., 2010. С.120.

yoshdan oshib ketishi bashorat qilinmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda aholi sonining har yili o'rtacha 0,2 foizga qisqarib borishi XXI asr o'rtalariga kelib Yevropa aholisining yarmi pensionerlardan iborat bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa mehnatga layoqatli aholi uchun bog'liqlik koeffitsientining ortib borishiga olib keladi. Misol uchun, 2040-yilga borib har bir frantsuz ishchisiga bir nafardan pensioner to'g'ri kelishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Ushbu nisbat har qirq yilda o'zgarib borgan, jumladan, 2000-yilda ikki nafar ishchiga bir nafar pensioner to'g'ri kelgan bo'lsa, 1960-yilda to'rt nafar ishchiga bir nafar pensioner to'g'ri kelgan⁴⁰. Ushbu holat pensiya to'lovlari badalida davlat moliya tizimi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Taqsimotga asoslangan pensiya tizimi bir pensionerga 3-4 nafar ishlovchi to'g'ri kelgan vaqtdagina samarali hisoblanadi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyatida XX asr boshlarida 65 va undan katta yoshdagi aholiga 4-5 nafardan mehnatga layoqatli aholi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-2025-yillarga borib ushbu nisbat Yevropa mamlakatlarida 1/2,5, AQShda esa 1/3,5 ni tashkil etishi kutilmoqda.⁴¹

Ko'plab mamlakatlarda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda. Bundan tashqari to'liq pensiya olish huquqini beruvchi mehnat stajini ham qisqartirish amaliyoti mavjud bo'lib, u ishchilarni muddatidan oldin mehnat bozorini tark etish imkonini beradi (pensiya muddatidan oldin chiqish, nogironlik pensiyasi va b.). Ayrim mamlakatlarda esa aksincha, muddatidan oldin pensiyaga chiqish shartlari qiyinlashtirilmoqda. Masalan, Finlyandiyada muddatidan oldin pensiyaga chiqish huquqi xususiy sektorda, Portugaliyada barcha ishchi, xodimlar uchun bekor qilindi. Ispaniyada esa muddatidan oldin pensiyaga chiqilgan har bir yil uchun pensiya miqdori 7 foizga qisqartiriladi.

AQShda pensiyaga chiqish yoshini bosqichma-bosqich uzaytirish jarayoni 1983-yildan boshlangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 67 yoshgacha uzaytiriladi. Buyuk Britaniyada pensiyaga chiqish ayollar uchun 65 yosh, keyinchalik 2024-

⁴⁰ Франция: пенсионная реформа [Электронный ресурс] //Новый пенсионер. Режим доступа: <http://www.pensioner.ru/>.

⁴¹ World Population Prospects, Volume I-II/Population Division /UNDESA/UN Secretariat, New York, 2015. ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2046-yillarda ayollar va erkaklar uchun pensiya yoshi 68 yoshga qadar uzaytiriladi.⁴²

Ayrim mamlakatlar (masalan, Kanada va Frantsiya) sug'urta badallari miqdorini oshirishmoqda. Shuningdek, pensiyalarni inflyatsiyaga bog'liq ravishda indeksatsiya qilish mexanizmlari va tamoyillari ham o'zgarishlarga uchramoqda. Masalan, Yaponiya va Shvetsiyada pensiyani indeksatsiyalash iste'mol narxlari o'sishiga mos ravishda, Germaniya va Avstriyada sof daromadlar indeksi asosida, Frantsiyada esa pensiyalarni indeksatsiyalash yuqorida qayd etilgan ikkala ko'rsatkichni ham hisobga oluvchi murakkab indeks yordamida amalga oshiriladi.

3. Soliq tizimi, soliqlar orqali tartibga solish va tarif siyosatini isloh etish. Davlat soliq imtiyozlarini taqdim etish va fuqarolarga pensiya tayinlash borasidagi mas'uliyatni bosqichma-bosqich ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimiga o'tkazib boradi. Ushbu holat Shveytsariya va AQSh kabi mamlakatlar uchun xosdir. Aksariyat mamlakatlar tariflarni oshirish va pensiya miqdorini kamaytirish yo'lini tanlashgan. Bunda pensiya miqdorini kamaytirishga tariflarni oshirishga nisbatan ustuvorlik berilgan. Misol uchun Germaniyada 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich 40 yillik sug'urta stajiga ega fuqarolar uchun qoplash koeffitsientini 70 foizdan 60 foizga qadar qisqartirish va nodavlat pensiya fondlari rolini oshirish ko'zda tutilgan.

4. Makroiqtisodiy va mehnat sohasidagi siyosatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda pensiya tizimlarini isloh etish. Bunda asosiy e'tibor mehnatga layoqatli yoshdagilarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi bandlik darajasini o'zgartirish, kutilayotgan umr davomiyligini uzaytirish va mehnat migratsiyasini oshirishga qaratiladi. Ayrim mamlakatlar katta yoshdagi xodimlar uchun to'liq bandlik holatidan to pensiyaga chiqqunga qadar ish haqini muntazam va kafolatlangan holda to'lash sharti bilan ish vaqti miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish imkoniyatini yaratib berishdi.

⁴² Грищенко Н.Б., Климанова К.В. Проблемы и пути реформирования пенсионного страхования //Вестник НГУЭУ. №2. 2012. С.79.

Shuni ta'kidlash zarurki, turli mamlakatlarda pensiya tizimlarini isloh etish yuqorida qayd etilgan pensiya tizimlarini aralash qo'llash orqali amalga oshirildi. Tahlillar ko'rsatishicha jahonda pensiya modellarining 250 dan ortiq variantlari mavjud bo'lib, faqat Chili, Boliviya, Salvador, Meksika va Qozog'istonda to'liq jamg'ariladigan pensiya tizimi joriy etilgan.

3.2. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoya kontseptsiyasi aholi turmush farovonligini oshirish, kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa aholi qatlamlariga moddiy va ma'naviy yordam qo'lini cho'zishda o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ushbu sohada bajarilish lozim bo'lgan muhim vazifalar belgilangan.

Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega ekanligi Konstitutsiyamizning 39-moddasida ko'rsatib o'tilgan⁴³.

O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimidagi islohotlarni olib borishda bu boradagi xorijiy tajribani har tomonlama o'rganish, jahon mamlakatlarida aholining ijtimoiy himoyasiga xizmat qiladigan, keksaygan paytida fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini ta'minlaydigan, shu bilan birga, bozor sharoitlariga mos bo'lgan, fuqarolarning o'z farovonligini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladigan mukammal pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va uning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash masalalari islohotlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalari qatorida turibdi.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

O‘zbekiston Respublikasida shakllangan pensiya ta’minoti tizimi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy ta’minot bo‘yicha huquq va manfaatlarini har tomonlama inobatga olgan holda shakllantirilgan. Pensiya va nafaqalar maksimal darajada fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.⁴⁴

Pensiya tizimining o‘rta va uzoq istiqboldagi maqsadi pensionerlarning asosiy ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishdir. Fuqarolar pensiyaga chiqqanidan so‘ng o‘zini himoyalangan his qilishi uchun pensianing eng kam miqdorini, yosh bo‘yicha va nogironlik pensiyalarini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq muammolar shundaki, 2030-yilga borib mamlakatimizda pensionerlar soni ikki baravar ko‘payadi.⁴⁵

12-jadval

O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichlari prognozi (2010-2050-yillar)⁴⁶

Ko‘rsatkichlar	2015y.	2020y.	2025y.	2030y.	2035y.	2040y.	2045y.	2050y.
Aholi soni (mln.kishi)	30,2	32,4	34,3	35,8	36,9	37,9	38,7	39,4
Tug‘ilish koef-ti (1 ayolga to‘g‘ri keldigan tug‘ilish soni)	2,2	2,1	2,0	1,9	1,9	1,8	1,8	1,8
Umr davomiyligi (umumiy)	68,5	69,0	69,6	70,1	70,7	71,2	71,7	72,2
Umr davomiyligi (erkaklar)	65,2	65,7	66,1	66,6	67,1	67,6	68,0	68,5
Umr davomiyligi (ayollar)	71,9	72,6	73,2	73,8	74,4	75,0	75,5	76,1
65 va undan katta yoshdagi aholi soni (%da)	4,4	5,1	6,6	8,2	9,4	10,5	11,7	13,4

⁴⁴ Nurmuxamedova B.I. Pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirishning zarurligi va yo‘nalishlari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to‘plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. 25-bet.

⁴⁵ <http://podrobno.uz/cat/obchestvo/uzbekistan-chislo-pensionerov/>


⁴⁶ World Bank Population Estimates and Projections (2014).

Jahon bankining prognozlariga ko'ra esa O'zbekiston aholisi 2050-yilga borib 39 mln. kishiga yetishi kutilmoqda. Mamlakatdagi o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichi 68 yildan 72 yilga oshadi va 65 yoshdan katta bo'lgan iqtisodiy faol aholi ulushi 4,4 foizdan 13,4 foizga etishi mumkin (11-jadval). O'zbekistonda ushbu nisbatga yashirin iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining ortishi, bandlik sohasidagi holat, mehnat migratsiyasi oqimi va demografik vaziyat jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bog'liqlik koeffitsienti 2000-2014-yillarda yaxshilanib bordi, jumladan, ushbu ko'rsatkich 2000-yilda 1:2,8 bo'lgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 1:4,0 ni tashkil etdi. Band bo'lgan aholi tarkibida bor yo'g'i 8,2 mln. kishi – 65,5% kishi pensiya fondiga majburiy jamg'ariladigan to'lovlarni to'lashini nazarda tutadigan bo'lsak, real nisbat 1:2,6 teng bo'ladi. Biroq yaqin besh yillikda ikkinchi jahon urushidan keyingi qulay demografik vaziyat tufayli tug'ilganlarni pensiyaga chiqish yoshiga yetishi va 2016-yildan boshlab avval imtiyozlari bekor qilingan shaxslarning pensiyani rasmiylashtirishni so'rab murojaat qilishi tufayli odatdagi har yili pensiyaga chiquvchi shaxslarga (150 ming) nisbatan ko'p (270 ming) kishilarni murojaat qilishi kutilmoqda. Bu esa bog'liqlik koeffitsientini kritik nuqtaga yaqinlashtiradi.

Pensiya fondi mablag'larini pensiya to'lash uchun etishmasligiga yashirin iqtisodiyotning mavjudligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mehnat migratsiyasi hajmining ortishi xorijda ishlayotgan fuqarolarimizni pensiya fondiga sug'urta to'lovlarini to'lamasligiga va kelajakda mamlakatga qaytib kelib, pensiya fondiga pensiya olish uchun murojaat qilib, unga bo'lgan bosimning ortishiga olib keladi.

Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omillardan biri aholi tarkibida mehnat qobiliyati yoshidan kattalar ulushining ortishi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mehnat qobiliyati yoshidan katta aholi ulushi birmuncha oshib bordi, jumladan, ushbu ko'rsatkich 1991-yil 7,2 foizni tashkil etgan bo'lsa 2015-yilga kelib 8,4 foizga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonni taraqqiy etgan va bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlardan keskin farqlantiradi. Vaholanki jahon amaliyotida qabul qilingan mezonga muvofiq, pensiya yoshidagi shaxslarning aholi umumiy sonidagi ulushi

12 foizdan ortiq bo'lsa, ushbu mamlakat aholisi qariyotganligini bildiradi. Shuningdek, ushbu holat taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining o'rtacha yashash davomiyligining o'sishi asosida erkak va ayollarning pensiyaga chiqish yoshini 65-67 yoshga oshirilganligi bilan belgilanadi.



6-rasm. 65 yoshdan yuqori bo'lgan aholining jami aholi sonidagi ulushi, foizda⁴⁷

Rasmdan ko'rinib turganidek, G'arbiy Yevropa davlatlarida 65 yoshdan yuqori bo'lgan aholining jami aholiga nisbatan ulushi 2010-yildagi 13,2 foizdan 2020-yilda 20 foiz bo'lishi, Shimoliy Amerika davlatlari bo'yicha esa 2010-yildagi 11,8 foizdan 2020-yilgacha 16,7 foiz bo'lishi, Rossiyada esa mos ravishda 13,3 dan 18,8 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Bu esa butun dunyoda aholining qarish jarayoni jadallashayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatda amal qilayotgan soliq solish amaliyotini optimallashtirish pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi, chunki uning yordamida jamg'ariladigan va ixtiyoriy pensiya sxemalarini shakllantirish va tartibga solish orqali davlat pensiya ta'minotiga tushadigan og'irlikni kamaytirish mumkin. 2013-yilda O'zbekistonda pensiya ta'minotiga sarflangan xarajatlar

⁴⁷ World Bank Population Estimates and Projections (2014) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

YaIMga nisbatan 7,3 foizni tashkil etdi. Pensiya to'lovlarining YaIM tarkibidagi oz ulushi ustun darajada ish haqi fondining YaIMdagi ulushining past darajadaligi bilan belgilanadi.

3-bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobga xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan: bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim.

2015-yilda mamlakatimizda pensiya to'lovlarining 98 foizi davlat pensiya tizimi hissasiga to'g'ri keldi. Mamlakatimizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'lari muddatiga ko'ra, "uzun" moliyaviy resurslar sifatida qaraladi. Chunki ushbu mablag'lar fuqaro pensiya chiqqunga qadar investitsiyalarga jalb etilishi mumkin. Hozirda jamg'armani shakllantirishda ixtiyoriy badallar ulushi jiddiy salmoqqa ega emas, shu jihatdan ushbu tizimni yanada takomillashtirish va nodavlat pensiya jamg'armalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy tashkilotlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 13-martdagi "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq, 2017-yil fevraldan boshlab barcha turdagi pensiyalar va nafaqalar faqat naqd pul ko'rinishida to'lanishi, pensiya va nafaqalar aktsiyadorlik tijorat Xalq banki filiallari tomonidan mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan maxsus kassalar orqali, shuningdek, mustaqil harakatlanish hamda pensiyalar va nafaqalarni maxsus kassalardan olish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga bevosita ular yashaydigan joyga etkazib berilishi yo'lga qo'yildi.

Sohada bir qancha ijobiy yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini zamonaviy moliyaviy siyosat konsepsiyalari asosida takomillashtirib borish, jamg'arma mablag'laridan oqilona foydalanish va uni maqsadli sarflashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etish lozim. Buning uchun, eng avvalo, pensiya ta'minoti nazariyasi va pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati, davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalarning turlari, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti borasida qonunchilikni takomillashtirib borish muhim. Ushbu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, arxivlar faoliyatini yanada rivojlantirish fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligini kamaytirib, byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda o'rta muddatli istiqbolda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun normalarini amaliyotga samarali joriy etish uchun qonunosti hujjatlarini takomillashtirish lozim;

- Jahonda pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilg'or tajribalarini Respublikamiz amaliyotida qo'llash maqsadida aholi turmush darajasini oshayotganligini hisobga olib, ijtimoiy to'lovlar yukini ish beruvchilardan ishchi va xodimlar zimmasiga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni amaldagi 87:13 nisbatni istiqbolda 50:50 nisbatga etkazishni ta'minlash maqsadga muvofiq;

- "Birdamlik" pensiya tizimidan bosqichma-bosqich jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tish siyosatini izchillik bilan amalga oshirish zarur;

- Xorijiy tajribani o'rganishda boshqa mamlakatlardagi u yoki bu amaliyotni ko'r-ko'rona tadbiq etmasdan, mamlakatimizning xususiyatlarini, bandlik, demografik vaziyat, aholi daromadlari, moliya tizimining holati, odamlarning dunyoqarashi va shakllangan axloq qoidalarini ham inobatga olish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi boblarda biz tomonimizdan jahondagi pensiya ta'minoti tizimlarining shakllanish va rivojlanish tarixi, jahondagi pensiya tizimlari modellarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mamlakatimizda shakllangan pensiya tizimining nazariy, tashkiliy-huquqiy va amaliy masalalari o'rganildi, Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiya Federatsiyasi pensiya amaliyoti misolida pensiya tizimlari modellari va ulardagi muammolar o'rganildi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yashnobod tuman bo'limining pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash bilan bog'liq faoliyati tahlil qilindi, Izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- yuqorida amaliyotlari tahlil etilgan xorijiy davlatlar pensiya tizimida o'ziga xoslik va dunyoning ko'plab rivojlanayotgan va sust iqtisodiy rivojlanishda bo'lgan davlatlari uchun tajribalar orttirishga munosib yutuqlar ham mavjudligini ko'rish mumkin;

- shu bilan birga, ularda ham hal etilishi jiddiy dolzarblikka aylanib borayotgan muammolar ham yo'q emas. Xususan, AQSH va Yevropa davlatlarida pensiya yoshidagilarning aholi soniga nisbatan ulushining yil sayin ortib borayotganligi, qolaversa, ushbu pensiya yoshidagilar muayyan darajada yana mehnat faoliyatini olib borishga qobil bo'lsa-da, biroq, ularning (AQSH, Daniya, Finlyandiya, Fransiya va boshqa taraqqiy etgan davlatlarda) pensiya haqlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani aholining katta qismi (80 foizi) jamg'arib boriladigan tizimlarda ishtirok etishiga va buning natijasida mehnat faoliyatini davom ettirishga hojat yo'qligini keltirib chiqarmoqda;

- dunyo mamlakatlarining aksariyat ko'pchiligida aholini ijtimoiy himoya qilish vositasi sifatida pensiya tizimlari shakllangan, ular tarixan bir-biriga yaqin davrlarda vujudga kelgan va ma'lum darajada aholining keksa va mehnatga layoqatsiz qatlamlarining ijtimoiy ta'minotiga xizmat qilgan;

- aksariyat mamlakatlarda asosan avlodlar birdamligiga asoslangan taqsimlanuvchi model, jamg'arib boriladigan model va korporativ modellarga

qurilgan turli pensiya dasturlari mal qiladi, bu dasturlarning moliyaviy manbalari ham modellarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan bo'lib, asosan, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga bog'liq;

– ko'pchilik taraqqiy etgan davlatlarda fuqarolarning pensiya ta'minoti masalasi davlat ahamiyatidagi siyosiy masala sifatida qaraladi, shu bilan birga, xususiy pensiya tizimlarining rivojlanganlik darajasi mamlakatdagi moliyaviy sektorning rivojlanganligiga, moliyaviy bozorlardagi holatga bevosita bog'liq.

Yuqorida shakllantirilgan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ish obyekti va predmeti bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonda yoshga doir pensiyalarni mehnat stajiga qarab to'lashdan sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish kerakligi taklif qilindi va asoslab berildi.

2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun normalarini O'zbekistonda ishlab chiqilgan, keng muhokamasi olib borilayotgan Pesiya islohotlari konsepsiyasidan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozimligi bilan bog'liq taklif ishlab chiqildi.

3. Qonunning normalarida fuqarolarning pensiya miqdorlari ularning mehnat stajlari davomiyligi va ish haqiga bog'liq bo'lishi hamda ijtimoiy sug'urta tizimiga faol qatnashishlarini rag'batlantiruvchi mexanizmlarini joriy etilishi zarurligi asoslandi.

4. Jahonda pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ilg'or tajribalarini respublikamiz amaliyotida qo'llash maqsadida aholi turmush darajasining oshayotganligini hisobga olib, ijtimoiy to'lovlar yukini ish beruvchilardan ishchi va xodimlar zimmasiga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni istiqbolda 50:50 nisbatga etkazishni ta'minlash maqsadga muvofiqligi taklif qilindi.

5. Davlat pensiya ta'minoti tizimiga va uni amal qilish mexanizmlarini takomillashtirib borilishiga Pensiya ta'minotini isloh qilish Kontsepsiyasi loyihasida keltirilgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi, xususan, ish staji 35

yildan oshgan fuqarolarning o‘rtacha oylik ish haqlari 2 karra oshirilishi, pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining eng yuqori miqdori eng kam ish haqining 8 baravaridan 12 baravariga ko‘tarilishi pensiya rasmiylashtirish uchun murojaat etgan shaxslarga munosib pensiya miqdori bilan ta‘minlash imkonini beradi. Bu borada fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini ixtiyoriy tarzda tanlash taklifi ishlab chiqildi, bunda fuqaro zarur ish stajiga ega va o‘rnatilgan pensiya yoshiga yetgandan so‘ng o‘zi xohlagan vaqtda pensiya so‘rab murojaat qilishi mumkinligi belgilab qo‘yilishi lozim, deb hisoblaymiz.

6. “Avlodlar birdamligi” tamoyillariga asoslangan pensiya tizimidan bosqichma-bosqich jamg‘arib boriladigan pensiya tizimiga o‘tish siyosatini izchillik bilan amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz, bunda harbiy xizmatchilarning, davlat xizmatchilarining pensiya ta‘minotini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan, ijtimoiy nafaqalarni ijtimoiy sug‘urta fondi mablag‘lari hisobidan, ishchi-xizmatchi bolgan boshqa fuqarolarning pensiya ta‘minotini jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi jamg‘armalari hisobidan mablag‘ bilan ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

7. Pensiya ta‘minotidagi islohotlarni amalga oshirishda xorijiy mamlakatlar pensiya ta‘minotidagi tajribalarni chuqur o‘rganish kerak, tahlil qilish va moslashtirish kerak, lekin ko‘r-ko‘rona to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib, bizning amaliyotimizga tatbiq etish yaramaydi, chunki rivojlangan mamlakatlar bilan bizning mamlakatimiz rivojlanish darajasi, fuqarolarga yaratilgan yashash va mehnat sharoitlari, mehnatning muhofaza qilinishi, daromadlar darajasi, demografik omillar farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 17-son, 173-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2004. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 33-son, 439-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdagi "Mehnat faoliyatini olib borayotgan pensionerlarning alohida toifalariga qulay sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5291-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2017 y., 06/18/5291/0488-son.

8. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-son Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 10-modda.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevralda “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2753-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 73-modda.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martda “Pensiyalar va nafaqalar to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 154-modda.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

19. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

20. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 2-ilova.

21. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli Farmoniga Ilova.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

22. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat kilish – eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston. NMIU. 2015.

23. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. T.: O'zbekiston. 2016. 72 b.

24. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

25. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezedentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi // 8.12.2016.

26. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

27. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018 y. – 64 bet.

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018 y. – 80 bet.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

30. Allayarov Sh.A., Toshmuxeamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2015. – 248 b.

31. Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015.

32. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: “Baktria press”, 2016 y. – 168 bet.

33. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Risola / Bekmurodov M. va boshqalar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 y. – 108 bet.

34. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008.
35. Mamatov B. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamolfayz media”, 2017 y. – 280 bet.
36. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. 224 b.
37. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. – T.: “Ma'naviyat”, 2017 y. – 184 bet.
38. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
39. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
40. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Public budgeting systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. – P. 667.
41. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / TMI – T.: “Noshir”, 2012. – 712 b.
42. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. –T.: “Adolat”. 2009. - 172 b.
43. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник / - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2009. - 576 с.
44. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. - М.: Вузовский учебник. 2011г. -224 с.
45. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник - 2-е изд. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2010. - 396 с.
46. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “Юрайт”. 2012. – 396 с.
47. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson

manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish bo’yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma’naviyat”, 2017 y. – 416 bet.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

48. Abdullayev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish muammolari. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. – T.:Universitet. 2014.

49. Ametova F.R., Boyev B.J. Pensiya tizimi taraqqiyotida jamg’arib boriladigan pensiya tizimining ahamiyati. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

50. Beknazarov Z.E. Pensiya ta’minotida xorijiy tajriba va xususiyatlar. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

51. Davronov SH.Z. Davlat pepsiya ta’minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda va yanada takomillashtirilmoqda. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. – T.: Universitet. 2014.

52. Kasimova G.A. Pensiya ta’minotida elektron mehnat daftarlarini joriy qilish masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil.

53. Mamatov B., Xujamkulov D. Pensiya ta’minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2016 yil.

54. Nurmuxamedova B.I. Pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirishning zarurligi va yo’nalishlari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislari to’plami. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. 25-bet.

55. Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.

56. Vaxabov A., Oxundedayeva M. Jahon pensiya tizimini rivojlantirish xususiyatlari. “Moliya” ilmiy jurnali. 2/2014. 87-bet.
57. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to‘plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. 10-bet.
58. Tursunov J.P. O‘zbekistonda davlat pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2017 yil.
59. Лебедева Л.Ф. США: государство и социальная политика/ М.: Наука, 2007. 271 с.
60. Лебедева Л.Ф. Федеральная программа пенсионного обеспечения в США // «Россия и Америка в XXI веке», №2, 2014.
61. Назаров В.С. Актуальные проблемы пенсионной реформы. М., 2010. С.120.
62. Обзор ключевых показателей негосударственных пенсионных фондов. 2015. № 4. <http://www.cbr.ru>
63. Федотов А. И. История возникновения пенсионных систем в зарубежных странах. Труды ИСА РАН 2006. 309-стр.
64. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislar to‘plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 432 b.
65. O‘zbekiston moliyasi / Финансы Узбекистана. – 2017. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.
66. O‘zbekiston raqamlarda / Узбекистан в цифрах. – 2017. Statistik to‘plam. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.
67. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Yashnobod tuman bo‘limi hisobot ma’lumotlari.

5. Internet saytlari

68. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
69. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
70. www.lex.uz (O'R qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi);
71. www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi)
72. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi)
73. www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi)
74. www.ziyonet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i);
75. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi);
76. www.interfinance.uz (Toshkent moliya institutining "xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali)